

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

YULDASHEVA ZILOLA NIZOMADDINOVNANING

5120100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH (O'ZBEK TILI)

TA'LIM YO'NALISHI

BO'YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: MUMTOZ HIKOYALARNI O'RGANISHNING ZAMONAVIY
USULLARI (“QISSASI RABG‘UZIY” HIKOYALARI ASOSIDA)

Ilmiy rahbar:

f.f.n. YULDASHEVA M.T



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası

**Mumtoz hikoyalarni o‘rganishning zamonaviy usullari (“Qissasi Rabg‘uziy”
hikoyalari asosida)**

Bajaruvchi:



Yuldasheva Zilola Nizomaddinovna

Rahbar:



f.f.n. Yuldasheva Mohigul Tuliyeвна

Urganch – 2017

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba: Yuldasheva Zilola Nizomaddinovnaga

Universitet rektorining «233-T»-sonli 2016-yil 19-dekabrdagi buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun "Mumtoz hikoyalarni o'rganishning zamonaviy usullari" ("Qisasi Rabg'uziy" hikoyalari asosida) mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan f.f.n. Yuldasheva Mohigul Tuliyevena bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:

Kirish

I BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUMTOZ HIKOYALARNI O'RGATISH VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

I.1. Mumtoz hikoyalarni o'rgatish masalasining DTS, o'quv dasturi va darsliklarda aks etishi

I.2. Mumtoz hikoyalarni o'rgatishdagi murakkabliklar va ularni bartaraf qilish usullari

II BOB. MUMTOZ HIKOYALARNI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

II.1. Maktabda mumtoz hikoyalarni o'qitishning estetik-pedagogik asoslari

II.2. Mumtoz hikoyalarda ramz va timsollar hamda ularni anglash yo'llari

III BOB. MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O'RGATISH YO'LLARI

III.1. "Qisasi Rabg'uziy" hikoyalarni o'rganishga zamonaviy yondashuv

III.2. Dars ishlanmasi

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar quyidagi nashrlardan olindi.

1. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Birinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 1990.

2. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Ikkinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 1991.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

No	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuning kafedrada tasdiqlanishi	2016-yil, sentabr
2	Bitiruv-malakaviy topshiriq bo'yicha ishning hajm va ko'lamini rejalashtirish	2016-yil, oktabr
3	Maxsus adabiyotlarni o'rganish, loyiha bo'yicha pedagogik-psixologik, metodik va amaliy materiallar yig'ish	2016-yil, noyabr
4	Bibliografiya va kartochkalar tuzish, yig'ilgan materiallarni tizimlashtirish	2016-yil, dekabr
5	Loyiha bo'yicha bitiruv malakaviy ishining hajmi va tartibini aniqlash	2017-yil, yanvar
6	Bitiruv malakaviy ish loyihasining kirish qismi dastlabki qoralamasini tayyorlash	2017-yil, yanvar
7	Bitiruv malakaviy ish loyihasining I bobi dastlabki qoralamasini tayyorlash	2017-yil, fevral
8	Bitiruv malakaviy ish loyihasining II bobi dastlabki qoralamasini tayyorlash	2017-yil, mart
9	Bitiruv malakaviy ishning elektron variant loyihasining dastlabki nusxasini tayyorlash	2017-yil, aprel
10	Bitiruv malakaviy ish loyihasini nazariy-amaliy jihatdan to'la tayyorlab, yakunlash	2017-yil, aprel
11	Bitiruv malakaviy ishi loyihasining borishi nazorati va uning nazariy hamda amaliy qismlarining kafedradagi muhokamasi	2017-yil, aprel
12	Kafedra mudiri va rahbar tomonidan tayyorlangan loyihani ko'rib chiqish	2017-yil, aprel
13	Tugallangan bitiruv malakaviy ish loyihasini rahbar xulosasi taqrizchining tavsiyasi bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish	2017-yil, aprel

Bitiruv malakaviy ish rahbari: f.f.n. Yuldasheva Mohlgul Tuliyeвна

Bajaruvchi talaba: Yuldasheva Zilola Nizomaddimovna

2017 yil « » _____

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2016- yil tasdiqlandi

(« 2 »- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: dots. D. Q. G'ayipov


(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARNING**XULOSASI**

Talaba: *Yuldasheva Zilola Nizomaddinovna*

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: *Mumtoz hikoyalarni o'rganishning zamonaviy usullari ("Qisasi Rabg'uziy" hikoyalari asosida)*

Bitiruv malakaviy ish hajmi 59 sahifadan iborat.

Tushuntirish qismi 56 sahifadan iborat.

Ilovalar soni: yo'q.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarga bilim berish bilangina chegaralanib qolmay, bilim olish yo'llarini o'rgatish, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchilariga aylantirishdir. Adabiyot fanini o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish ta'lim sohasi oldida turgan dolzarb masalalardan sanaladi. Mumtoz nasriy asarlarni o'rganishning zamonaviy usullarini ta'lim tizimiga joriy etish masalalarining yoritilganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi.

Yuldasheva Zilola bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida mumtoz adabiyot, xususan, Rabg'uziy ijodi bo'yicha yaxshi bilimga ega ekanligini namoyon qilgan. Bu esa uning umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi talab darajasida ekanligidan dalolat beradi.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari.

Yuldasheva Zilola bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida mavzuga doir adabiyotlar bilan yaxshi tanishgan. O'z fikrlarini asoslashda yetuk metodist olimlarning ilmiy-nazariy fikrlariga tayangan. Mumtoz adabiyot namunalarini tushuna olish va o'z mustaqil fikrini erkin ifodalay olish qobiliyatiga ega. Z.Yuldasheva ilmga ishtiyoqi baland, tirishqoq hamda izlanish olib borishda o'ziga talabchan.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Yuldasheva Zilola mavzu bo'yicha manbalarni, tegishli nazariy adabiyotlarni puxta o'rganib, yig'ilgan materiallarni tizimlashtirib, tanlangan mavzuni tadqiq qilishning ilmiy tahlil metodlarini o'zlashtirgan holda kuzatishlari natijalarini reja asosida mantiqiy izchillikda bayon qilgan. Yuldasheva Zilola Nizomaddinovning "Mumtoz hikoyalarni o'rganishning zamonaviy usullari" ("Qisasi Rabg'uziy" hikoyalari asosida) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi.

Bitiruv malakaviy ishni ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

M.T.

f.f.n.M.T. Yuldasheva

2017- yil « 13 » aprel



M.T.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar va fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi: Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalardan o‘rinli foydalanilgan. Tadqiqotchi o‘z ishida ilmiy-nazariy, badiiy adabiyotlarga asoslanib ishning mazmunini yoritib bergan. Ishda mumtoz adabiyot namunalarini o‘rgatish yo‘llari, xususan, “Qisasi Rabg‘uziy” hikoyalarini o‘rganishga zamonaviy yondashuv kabi masalalar ochib berilgan. Bunda Yuldasheva Zilola adabiyotshunoslikda erishilgan oxirgi yutuqlardan foydalangan.

Mazkur ishda istiqlol yillarida adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘yicha amalga oshirilgan Q.Yo‘ldoshev, B.To‘xliyev, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, V.Qodirovlarning ilmiy ishiariga ham murojaat qilingan va “Qisasi Rabg‘uziy” asaridan unumli foydalanilgan.

Ilmiy-uslubiy va texnik-iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ishi ravon ilmiy uslubda yozilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta‘lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Bitiruv malakaviy ishda “Qisasi Rabg‘uziy”dagi hikoyalar zamonaviy usullardan foydalangan holda tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta‘lim maktablarida o‘tiladigan adabiyot darslarini o‘qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishdagi kamchiliklar: Ishda ba‘zi kamchiliklar ham bor. Jumladan, unda ayrim uslubiy, imloviy xatolar kuzatiladi. Lekin bu ishning ilmiy qimmatiga putur yetkazmaydi. Tadqiqot talablar darajasida yozilgan bo‘lib, bitiruv malakaviy ishini ijobiy baholayman.

Taqrizchi:



UrDU qoshidagi 2-son akademik litsey

Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Zakirova Maqsuda

2017- yil « 5 » may

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi
Yuldasheva Zilola Nizomaddinovning
bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: Mumtoz hikoyalarni o'rganishning zamonaviy usullari ("Qisasi Rabg'uziy" hikoyalari asosida)

Malakaviy ishning hajmi: 13394 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 56 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: yo'q.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi: Milliy merosga, xususan, milliy adabiyotning sara namunalariga tayangan holda yosh avlodni yetuk shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri. Bu borada musulmon sharqi pedagogikasi va adabiyoti o'ziga xos tajriba hamda an'analarga ega. O'zbek mumtoz adabiyoti, aynan, mumtoz hikoyalarni o'rganish, uni tahlil qila olish orqali badiiy so'zni his qilish muammosi tadqiqiga bag'ishlanganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Yuldasheva Zilola mavzu asosida ish olib borgan va o'rta qo'yilgan masalalarni yaxshi yoritib bergan.

Bitiruv malakaviy ishning "Kirish" qismi, ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Tadqiqotning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilishi, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Talaba bitiruv malakaviy ishida mumtoz hikoyalarni o'rgatishdagi murakkabliklar va ularni bartaraf qilish usullarini, maktabda mumtoz hikoyalarni o'qitishning estetik-pedagogik asoslari, mumtoz hikoyalarda ramz va timsollar hamda ularni anglash yo'llari kabi masalalarni yaxshi yoritgan. Talaba o'z fikrlarini asoslash uchun metodist olimlarning fikr-mulohazalariga tayangan.

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash me'zonlari

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning Mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyada ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash me'zonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti filologiya (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Yuldasheva Zilola Nizomaddinovning "Mumtoz hikoyalarni o'rganishning zamonaviy usullari" ("Qisasi Rabg'uziy" hikoyalari asosida) mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ishi DAKning «___» 2017 yil « 6-iyun » dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

No	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan Ball
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	8
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	30
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	8
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallardan foydalanish	10	8
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	8
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	4
7	Himoyada ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	10
Jami:100 ball			86

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. *Yuldasheva Zilola Nizomaddinovning "Mumtoz hikoyalarni o'rganishning zamonaviy usullari" ("Qisasi Rabg'uziy" hikoyalari asosida)* mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 86 lik o'zlashtirish ko'rsatkichl belgilansin va « a'lo » deb baholansin.

2. *Bitiruv malakaviy ish himoyasi talablar darajasida o'tkazilganini e'tirof o'tkazsin*

DAK raisi:

A'zolari:

2017 yil « 6 » iyun

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____ sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchi: Yuldasheva Zilola Nizomaddimovna


Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: Mumtoz hikoyalarni o'rganishning zamonaviy usullari ("Qisasi Rabg'uziy" hikoyalari asosida)

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: Yuldasheva Mohigul Tuliyeвна

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2016- yil « 6 » iyun da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib UrDU qoshidagi 2-son akademik litsey Ona tili va adabiyot o'qituvchisi Zakirova Maksuda tayinlandi.

Kafedra mudiri:



dots. G'ayipov D.Q.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:



dots. Jumaniyozov. Z.O.

“Tasdiqlayman”

fakultet dekani

Jumaniyozov Z.O



“ ” 2017-y.

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası
filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Yuldasheva Zilola Nizomaddinovna

1. Ishning mavzusi: Mumtoz hikoyalarni o‘rganishning zamonaviy usullari (“Qisasi Rabg‘uziy” hikoyalari asosida)

«19» dekabr 2016-yil universitet rektorining 233-T sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “15” aprel 2017 y.

3. Mavzu bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro‘yxati:

a) Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. Birinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 1990.

b) Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. Ikkinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 1991.

c) To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

d) Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996.

f) Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. –T.: Muharrir, 2013.

g) Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.



h) Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammolari va yechimlar. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2009.

4. **Ishning maqsadi:** Bitiruv malakaviy ishidan ko‘zlangan maqsad umumta’lim maktablarida mumtoz nasriy asarlarni sharhlab o‘rgatish, tahlil qilish va shu asosda adabiyotimizdagi noyob va nodir asarlar bilan o‘quvchilarni yaqindan

tanishtirish, ulardagi tub hamda yashirin ma'nolar xazinasining eshigini ularga ochishda ko'maklashish, ular ma'nan yetuk inson bo'lib yetishishlari uchun adabiyotga oshno qilishdan iboratdir.


5. Chizma materiallar ro'yxati: _____

6. Maslahatchilar: _____

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
1. Ishning kirish qismini yozish	f.f.n. M.T Yuldasheva	2017-yil fevral	
2. Ishning birinchi bobini yozish.	f.f.n. M.T Yuldasheva	2017-yil fevral	
3. Ishning ikkinchi bobini yozish.	f.f.n. M.T Yuldasheva	2017-yil mart	
4. Ishning uchinchi bobini yozish.	f.f.n. M.T Yuldasheva	2017-yil mart	
5. Ishning xulosa qismini yozish	f.f.n. M.T Yuldasheva	2017-yil mart	
6. Adabiyotlar ro'yxatini yozish.	f.f.n. M.T Yuldasheva	2017-yil aprel	


Taqrizchi: UrDU qoshidagi 2-son akademik litsey Ona tili va adabiyot o'qituvchisi Zakirova Maksuda

7. **Ilmiy rahbar:** f.f.n. Yuldasheva Mohigul Tuliyeвна




(imzo)

BMI bajaruvchi talaba: Yuldasheva Zilola Nizomaddinovna



(imzo)

Kafedra mudiri: dots. G'ayipov Dilshod Qadambayevich



(imzo)

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
I BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUMTOZ HIKOYALARNI O'RGATISH VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	8-19
I.1. Mumtoz hikoyalarni o'rgatish masalasining DTS, o'quv dasturi va darsliklarda aks etishi.....	8-11
I.2. Mumtoz hikoyalarni o'rgatishdagi murakkabliklar va ularni bartaraf qilish usullari.....	12-19
II BOB. MUMTOZ HIKOYALARNI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.....	20-34
II.1. Maktabda mumtoz hikoyalarni o'qitishning estetik-pedagogik asoslari.....	20-24
II.2. Mumtoz hikoyalarda ramz va timsollar hamda ularni anglash yo'llari.....	25-34
III BOB. MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O'RGATISH YO'LLARI.....	35-54
III.1. "Qisasi Rabg'uziy" hikoyalarni o'rganishga zamonaviy yondashuv.....	35-43
III.2. Dars ishlanmasi.....	44-54
UMUMIY XULOSALAR.....	55-57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	58-59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari jahon adabiyotining ham eng yetuk, eng sara asarlari sirasidan joy olgan. Dunyo estetik tafakkuri taraqqiyotiga o‘z ijodlari bilan ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimiz asrlar davomida bashariyatga ma‘rifiy yuksalish, ma‘naviy poklanish borasida ham saboq berib kelmoqda. Ana shu nodir adabiy merosimizni, eng avvalo, xalqimiz orasida targ‘ib etish, ularda jo bo‘lgan badiiy yuksaklik, g‘oyaviy teranlikni kishilar tushunchasiga yetkazish yo‘riqlarini ishlab chiqish, takomillashtirish har doim ham muhim vazifalardan bo‘lib kelgan. Jamiyat a‘zolari ongida milliy mafkura hamda ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirishga da‘vat etilgan ta‘lim muassasalarining faoliyati bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda yosh avlodni ma‘nan yuksak insonlar qilib tarbiyalash davlat miqyosidagi muhim vazifa darajasiga ko‘tarildi. Birinchi prezidentimiz aytganlaridek, “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o‘rib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”.¹ Chunki ma‘naviyati boy kishilar yashaydigan mamlakat iqtisodiy, siyosiy jihatdan taraqqiy topadi va ular yashaydigan jamiyat ham kuchli bo‘lishi muqarrardir. Targ‘ibot-tashviqot, ta‘lim-tarbiyaga daxldor shaxslar, idoralarning o‘z faoliyatlarida jonkuyar, tashabbuskor hamda ijodkor bo‘lishlari bu boradagi ishlarning samarasini ta‘minlaydigan yetakchi omillardan sanaladi. “Ma‘naviyat haqida har qancha da‘vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o‘ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko‘zlangan maqsadga erisholmaymiz, ya‘ni inson qalbiga yo‘l topolmaymiz”² deyiladi “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, har bir xalq pedagogikasida milliy merosga, xususan, milliy adabiyotning sara namunalariga tayangan holda yosh avlodni yetuk

¹ Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch.–T.: Ma‘naviyat,2008, 1-o.

² O‘sha asar, 29-b.

shaxs sifatida tarbiyalashga qadimdan alohida e'tibor berib kelingan. Bu borada musulmon sharqi pedagogikasi va adabiyoti o'ziga xos tajriba hamda an'analarga ega ulkan bir ummondir. Bu ummondan oziqlanish esa, o'z-o'zidan, o'zbek mumtoz adabiyotini o'rganish, uni tahlil qila olish orqali badiiy so'zni his qilishdan boshlanishi ham hech kimga sir emas. Shu bois biz mavzuni aynan mumtoz hikoyalarni o'rganish muammosi tadqiqiga bag'ishladik. Zero, jamiyatimizning yangilanishi, taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog'liq. Bugungi kunda ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarga bilim berish bilangina chegaralanib qolmay, bilim olish yo'llarini o'rgatish, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchilariga aylantirish ekan, yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda adabiyot fanini o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish bugungi kunda ta'lim sohasi oldida turgan dolzarb masalalardan sanaladi. Mumtoz nasriy asarlarni o'rganishning zamonaviy usul arini ta'lim tizimiga joriy etish masalalarining yoritilganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Ushbu kichik tadqiqotimizga Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov hamda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning milliy istiqlol va milliy o'zlikni anglash borasidagi asarlari va ma'ruzalari metodologik asos vazifasini o'taydi. Shuningdek, B.To'xliyev, Q.Yo'ldoshev, Q.Husanboyeva, M.Mirqosimova, V.Qodirov kabi adabiyotshunoslarimizning metodikaga oid ishlari ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilish darajasi Maktabda adabiyot o'qitish muammolari A.Zunnunov³, S.Dolimov⁴, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov, N.Hotamov kabi metodist olimlar tomonidan o'rganilib, maxsus qo'llanma va risolalar nashr etilgan. Ularda adabiyotni o'qitishning umumiy muammolari qatorida mumtoz adabiyot namunalarini o'rganish va tahlillash bo'yicha ham metodik tavsiyalar berilgan.

³ Zunnunov A., Xotamov N., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.1992

⁴ Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1967.

Istiqlol yillarida ham adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha bir qator jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Q.Yo'ldoshev⁵, B.To'xliyev⁶, M.Mirqosimova⁷, Q.Husanboyeva⁸, V.Qodirovlarning⁹ ilmiy ishlarida ham mumtoz adabiyotni o'qitish masalalariga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, keyingi yillarda "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida mumtoz adabiyot namunalari o'rganish bo'yicha bir qator maqolalar e'lon qilindi¹⁰. Ularda mualliflar adabiyotshunoslik va metodika fanining so'nggi yutuqlaridan foydalanganlar, albatta. Biz ana shu tadqiqotlarga tayangan holda Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" hikoyatlari misolida mumtoz nasr y asarlarni o'rganishning zamonaviy usullarini ko'rsatib berishga, muammoning ilmiy hamda nazariy jihatlari xususida to'xtalishga, zarur o'rinlarda o'qituvchilarga mumtoz hikoyalarni o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar berishga harakat qildik.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Umumta'lim maktablarida mumtoz nasriy asarlarni sharhlab o'rganish, tahlil qilish va shu asosda adabiyotimizdagi noyob va nodir asarlar bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish, ulardagi tub hamda yashirin ma'nolar xazinasining eshigini ularga ochishda ko'maklashish, ular ma'nan yetuk inson bo'lib yetishishlari uchun adabiyotga oshno qilish ishning asosiy maqsadi sanaladi. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, ishda quyidagi **vazifalarni** bajarish ko'zda tutiladi:

- umumta'lim maktablarida mumtoz asarlarni o'rganishning o'ziga xos jihatlari xususida to'xtalish;
- mumtoz nasrimizning yorqin siymolaridan biri bo'lgan Nosiriddin Rabg'uziy hayoti haqida o'quvchilarda tasavvur va bilim manbaini shakllantirish;
- Nosiriddin Rabg'uziy ijodi bilan yaqindan tanishtirish;

⁵ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996.

⁶ To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

⁷ Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.

⁸ Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo'li. – T.Muharrir, 2013.

⁹ Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.

¹⁰ Hasanov Sh. Mumtoz asarlar matnini tahlillash tajribasidan.// "Til va adabiyot ta'limi". 2008. 5-son.

- “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi hikoyalarda qalamga olingan voqealar yordamida diniy bilimlarni ham rivojlantirish;
- hikoyalarning mazmun-mohiyatini tushuntirish yordamida turli yot g‘oyalarga nisbatan ma’naviy immunitetni hosil qilish;
- mumtoz nasriy asarlarni o‘rgatish samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari haqida ma’lumot berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida umumta’lim maktablarida mumtoz nasriy asarlarni o‘rganishning nazariy masalalari, keng planda va ko‘p tomonlama yondashuvlar asosida yoritilgan, bu ishning asosiy yangiligidir. Bundan tashqari, tadqiqotda “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi hikoyalar zamonaviy usullardan foydalangan holda tahlil etilgan.

Tadqiqot manbalari. Tadqiqotga XIV asrda Nosiriddin Rabg‘uziy tomonidan yaratilgan mumtoz nasriy asar “Qisasi Rabg‘uziy” hikoyalari material vazifasini o‘tadi, shuningdek, adabiyot o‘qitish metodikasiga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik maqolalar, jumladan, Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, M.Mirqosimova, B.To‘xliyev singari metodist olimlarning tadqiqotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqotning obyekti sifatida Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi darsliklarga kiritilgan hikoyalari tanlandi.

BMI natijalarining e‘lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot mavzusi yuzasidan “Tafakkur ziyosi” jurnalida “Mumtoz hikoyalarni o‘rganishning o‘ziga xosliklari” nomli maqola e‘lon qilingan.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan chiqarilgan xulosalar ilmiy asoslangan bo‘lib, yangi tadqiqotlar yaralishiga zamin hozirlaydi. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishi natijalaridan o‘zbek adabiyoti bo‘yicha referat va kurs ishi yozishda foydalanish mumkin. Bu esa tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqotning tarkibi. Ushbu tadqiqot “Kirish” hamda “Umumta’lim maktablarida mumtoz hikoyalarni o‘rgatish va uning o‘ziga xos jihatlari”,

“Mumtoz hikoyalarni o‘qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari”, “Mumtoz adabiyot namunalarini o‘rgatish yo‘llari” deb nomlangan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. BMLning hajmi 59 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O'RTA MAKTABLARDA MUMTOZ HIKOYALARNI O'RGATISH VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

1.1. Mumtoz hikoyalarni o'rgatish masalasining DTS, o'quv dasturi va adabiyot darsliklarida aks etishi. “Xalqimiz asr ar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlarini, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlilikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim”.¹¹

Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida borayotgan tub islohotlar jarayonining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, iqtisodiy hamda tashkiliy asosi bo'lmish “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, Respublika Prezidentining farmonlari va hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar o'quv predmetlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda boshqa o'quv-metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etib, ta'limni sifat jihatdan yangilashni talab qilmoqda. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun qabul qilingandan so'ng umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'qitiladigan fanlardan davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari ishlab chiqildi va hukumat tomonidan tasdiqlandi. Mamlakatimizda ta'limning huquqiy asoslari, istiqbollari qonun bilan, uning mazmun va sifati standartlar bilan, tashkiliy-amaliy jihatlari o'quv dasturlari bilan belgilangan, o'quv-metodik tadbirlar darslik va qo'llanmalarda tavsiya etilgan. Demak, jamiyatda sohaning qonuniy, huquqiy, tashkiliy asoslari yaratilgan, tizimga solingan. Bu esa davlatimizning ta'lim sohasiga bo'lgan katta e'tiboridan darak beradi va shu belgilab qo'yilgan vazifalarni amalga oshiruvchi muassasalar, ta'lim amaliyotining ishtirokchilari: pedagoglar, soha rahbarlari, shuningdek, o'quvchilar va ularning ota-onalari zimmasiga katta mas'uliyatni ham yuklaydi. Albatta, “Farzandlari

¹¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996, 283-b.

sogʻlom yurt qudratli boʻlur, qudratli yurt farzandlari esa sogʻlom boʻlur”¹², shu sababdan yurtimizda kelajak yosh avlodga katta eʼtibor qaratilgan boʻlib, ularning jismonan sogʻlom boʻlishlari bilan birgalikda maʼnan yetuk, barkamol boʻlib ulgʻayishlari uchun koʻplab shart-sharoitlar yaratilgan va yaratilmoqda. Hozirgi kunda bilimdon oʻquvchini tarbiyalash bosh muddao boʻlmay, balki barkamol avlodni (shaxsni) shakllantirish diqqat markazida tutilmoqda. Tabiiyki, bunday jarayonda badiiy adabiyotning, jumladan, umrboqiy qadriyatlarimiz, islomiy-tasavvufiy sarchashmalar va mumtoz asarlarning oʻrni beqiyos kattadi.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan soʻng oʻtmishni, fanlar tarixi, adabiy merosni oʻrganishga jiddiy eʼtibor qaratildi. Milliy oʻzlikni anglash, milliy mafkura, maʼnaviyat, maʼrifat kabilar Davlat dasturidagi dolzarb masalalar sirasidan ustuvor yoʻnalish sifatida joy oldi. Shu jihatdan mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning hozirjavoblik va donolik bilan aytgan quyidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi: “Biz maʼnaviy qadriyatlarni tiklashni milliy oʻzlikni anglashning oʻsishidan, xalqning maʼnaviy sarchashmalariga, ularning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon hisoblaymiz”.¹³ Xalqimiz maʼnaviy qadriyatlarini oʻzida ifoda etgan oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixini oʻrganish barkamol avlod qalbida milliy iftixor tuygʻularini shakllantirilishiga ulkan hissa qoʻshishi bilan ahamiyatlidir. Oʻzbek mumtoz adabiyoti xalqimizning qadim zamonlardan XIX asrning oʻrtalarigacha vujudga kelgan noyob badiiy durdonalarini oʻz ichiga oladi. Tabiiyki, bu ming yilliklarga choʻziladigan jarayonda dunyo yuzini koʻrgan badiiy asarlarda xalqimizning dastlabki eʼtiqodiy qarashlaridan tortib XIX asrning oʻrtalarigacha yashab ijod qilgan qalamkashlarimizning irfoniy-falsafiy, adabiy-badiiy, ilohiy-maʼnaviy qarashlari oʻz ifodasini topgan.

Mustaqillik yillari adabiyot boʻyicha Davlat taʼlim standartlari hamda oʻquv dasturlari ishlab chiqilib, bir necha bor takomillashtirildi. Bu jarayon, yaʼni darsliklarning yangi avlodi yaratilishi hozir ham davom etmoqda. Mazkur hujjatlar shoʻro davriga nisbatan olinganda inqilobiy degulik darajada oʻzgargan,

¹²Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. – T.: Sharq, 1998, 31-b.

¹³Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: Oʻzbekiston, 1997, 137-b.

takomillashgan. Ular oldindan belgilab qo'yilgan sun'iy qoliplar asosida emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, jahon ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarga asoslangan, yangi pedagogik tafakkurga tayangan holda yaratilgan. O'rganish uchun tanlab olingan asarlarning yuksak badiiy mezonlar talabiga javob berishi, tarbiyalanuvchilarning badiiy didini o'stirishga, ma'naviy olamini shakllantirishga, ularda yuksak axloqiy sifatlar shakllantira olishga, o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos kelishi kabi jihatlarga qarab tanlab olingan.

Nasr mumtoz adabiyotda unchalik katta o'rin egallamaydi. Adabiyotimiz tarixida bu adabiy turda qalam tebratgan adiblar unchalik ko'p emas. Aksariyati diniy didaktika bilan yo'g'rilgani bois sho'rolar davrida ularning ko'pchiligi adabiy ta'limda o'rganish obyekti qilib olinmagan. Faqat "Boburnoma" va "Zarbulmasal" dan parchalar o'rganilgan, xolos. Mustaqillikdan keyin umumta'lim maktablari adabiyot dasturlariga almashinib bo'lsa-da, mumtoz nosirlarning deyarli barchasi kiritildi. Dasturlardan xalqimiz asrlar davomida sevib o'qib kelgan quyidagi adiblarning badiiy-didaktik jihatdan yuksak nasriy ijod namunalari o'rin oldi:

1. Kaykovus "Qobusnoma" 5-sinf (2004-yilgi nashr).
2. Sa'diy Sheroziy "Guliston" 5-sinf (2007), "Guliston" 10-sinf (1995).
3. Rabg'uziy "Qisasi Rabg'uziy" 5-sinf (1997), 6-sinf (2002, 2005), 9-sinf (1993, 2006), 10-sinf (2004).
4. Sayfi Saroyi "Guliston bit-turkiy" 8-sinf (1997), 9-sinf (1993), 10-sinf (2004).
5. Navoiy "Mahbub ul-qulub" 5-sinf (2004), 6-sinf (2008), "Tarixi muluki ajam" 8-sinf (1997), "Muhokamat ul-lug'atayn" 10-sinf (1993).
6. "Boburnoma" 7-sinf (1995), 9-sinf (2006), 10-sinf (1993, 2004).
7. Xoja "Miftoh ul-adl", "Gulzor" 5-sinf (1997), 10-sinf (2004).
8. Mashrab "Qisasi Mashrab" 9-sinf (2006), 10-sinf (1993).
9. Gulxaniy "Zarbulmasal" 6-sinf (2002, 2005).
10. Almai "Kalila va Dimnaya Turkiy" 10-sinf (1993).

Darsliklarga kiritilgan asarlarni mumtoz hikoyalar, qissadan parchalar, masallar, ilmiy hamda ilmiy-badiiy asarlardan parchalar va pandlar tashkil etadi. Ularning aksariyatida diniy-didaktika, diniy tushunchalar, islom tarixi bilan bog'liq dalillar tasviri yetakchilik qiladi.

Sharqda keng tarqalgan mumtoz nasr janri hikoyadir. Badiiy va ilmiy adabiyotlarda ko'pincha hikoyat tarzida istifoda etiladi. Darslikda hikoya janri quyidagicha ta'riflangan: "Mumtoz hikoya qadim o'zbek nasrining bir shakli. Ko'pincha, hikoya deyilganda, payg'ambarlar, yarim tarixiy, yarim afsonaviy shaxslar, pir-murshidlar, hukmdorlar, fan-madaniyat, adabiyot-san'at sohalarining mashhur arboblari hayoti, ular bilan bog'liq turli-tumari hodisalar haqida bitilgan qisqa, ixcham, jajji nasriy lavhalar ko'zda tutiladi"¹⁴.

Mumtoz hikoyaning janr belgilari: a) asosan, didaktik mavzuda yaratilib, ibrat, nasihat, asosiy maqsad qilib qo'yiladi; b) bosh obraz sifatida aksar hollarda tarixiy shaxslar olinadi, to'qima obrazlar juda kam bo'ladi va bo'lsa ham ularga ism qo'yilmay, "bir kishi", "odil bir podsho", "piri komil", "taqvodor zohid" kabi umumiy tarzda beriladi; v) hajmi kichik, muxtasar bo'ladi, asosan, bir, ba'zan undan ortiq hayotiy lavha qisqa dialoglar bilan ko'rsatilib, muhim bir hayotiy haqiqatni, ibratni ochiq yoki ramz bilan bayon etadi; g) o'ziga xos siqiq kompozitsiya va tugal mazmunga ega bo'lib, hikoyat oxirida nasriy yoki she'riy tarzda "qissadan hissa" chiqariladi; d) hikoyalarning tili murakkab bo'lmasligi, ifoda xalq og'zaki ijodiga yaqin turishi lozim. O'qituvchi janrning bu xususiyatlarini yaxshi bilishi, tahlil davomida ularni inobatga olib, tegishli sinflarda nazariy ma'lumot sifatida o'tishi kerak bo'ladi.

¹⁴ Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. Adabiyot.10-sinf darsligi. – T.:O'qituvchi, 2004, 255-b.

1.2. Mumtoz hikoyalarni o'rgatishdagi murakkabliklar va ularni bartaraf qilish usullari.

Ta'lim bosqichlarida o'qitiladigan barcha predmetlar uchun bir xil shart-sharoit, o'quv, moddiy-texnik baza yaratilgan. Ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan muvaffaqiyatlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar ham bor. Lekin har bir predmet bo'yicha ishlar sarhisob etilganda turlicha natijalar qayd etilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Ilmiy-nazariy asoslari deyarli barqaror, o'zgarmas bo'lgan tabiiy-matematik fanlar bilan jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy mafkuraviy qarashlariga aloqador bo'lgan ijtimoiy-gumanitar fanlarga yondashuv o'rtasida tafovut bo'lishi tabiiy bo'lganidek, ularni o'qitishda duch kelinadigan muammolarda ham ayroliklarning bo'lishi tabiiy bir holat. Chunki mustaqillikdan keyin nazariy mohiyati tubdan qayta ko'rib chiqilgan ijtimoiy fanlarning ilmiy-pedagogik, o'quv-metodik asoslariga yangicha yondashuvni davrning o'zi taqozo etmoqda.

“Asr boshidan buyon “ko'rsatib berish”, “fosh etish”, “aniqlab olish” bilan shug'ullanib kelgan milliy adabiyotshunoslik asr adolig'iga yetganda tadqiq va talqinga mayl ko'rsatdi. Endilikda o'zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda va bu davrda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni, asosan, ijtimoiy nuqtayi nazardan tekshirishga moslashgan bo'lsa, endi mavjud qoliplarni tark etib, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinmoqda. Natijada, ko'plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik taffakuri taraqqiyotidagi tarixiy o'rni xolisona belgilanayotir”.¹⁵

Adabiyotshunoslikdagi mazkur yangilanish arni adabiyot o'qitish jarayoniga tatbiq etish o'tgan asr 90-yillarning birinchi yarmidan boshlab yaratilayotgan dastur, darslik va qo'llanmalarda aks etib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bu o'z navbatida yurtimizdagi akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, maktablardagi adabiyot o'qitish ishiga ijobiy turtki berdi. Shuningdek, Qozoqboy Yo'ldoshev, Boqijon To'xliyev, Safo Matchon, Marg'uba Mirqosimova, Qunduzoy Husanboyeva, Roza Niyozmetovalarning doktorlik

¹⁵Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. -T.: Yangi asr avlodi,2006, 94-b.

ishlari asosida olib borgan tadqiqotlari, yaratgan monografiya va qo'llanmalari hamda ushbu olimlar rahbarligidagi ilmiy izlanishlar soha rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Ma'lumki, hozirgi paytda o'rta maktablarda adabiyot ta'limi mazmunan quyidagicha o'rgatilmoqda. Ular:

Xalq og'zaki ijod
adabiyoti

Eng qadimgi
(islomgacha
bo'lgan) davr
adabiyoti

Mumtoz adabiyot

Yangi davr
adabiyoti

Bu davrlarga mansub adabiy namunalarning o'qitilish saviyasi hamda murakkablik darajasi bir xil emasligi barcha mutaxassislarga birdek ayondir. Qaysi bir o'qituvchi xalq og'zaki ijodini, kimdir qadimgi davr ijod namunalari, yana boshqasi, yangi davr adabiyotini sevib, ko'ngildagiday o'qitishini e'tirof etishi mumkin, lekin mumtoz adabiyot namunalari ortiqcha qiynalishlarsiz o'taman, deydigan o'qituvchini topish amri mahol. Bundan tashqari mumtoz adabiyot o'zida olam-olam ma'nolarni jamlagan ulkan xazinadir. Bu ma'nolarni, albatta, har bir o'quvchi chuqur anglab yetmog'i, tushunmog'i, uning botiniy hamda zohiriy uchqunlarini payqamog'i lozim. Zeroki, bu bilimlar uning komillikka tomon qadam qo'yishida muhim vazifani bajaradi. Buni zabardast shoirlarimizdan bo'lmish Erkin Vohidov go'zal tarzda ifodalagan:

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
Bedil qolib Demyan Bedniyni su'ysa,
Qora sochning malla bo'lgani shudir.

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Dod demoqqa palla bo'lgani shudir.
Ma'rifatdan ayru o'ynasa, kulsa,

Aza chog‘i yallabo‘lgani shudir.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Aldangani, alla bo‘lgani shudir.
Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilgich xor bo‘lsa,
Paytavaning salla bo‘lgani shudir.

O‘zbek o‘zligini anglasa bekam,
Uning “Barakalla” bo‘lgani shudir.
Olamga Navoiy nasliman degan
Ovozi baralla bo‘lgani shudir.¹⁶

Xuddi shunday targ‘ibot-tashviqot shoirimiz Sirojiddin Sayyid ijodlarida ham uchraydi:

Har bir kalla,
Har bir bosh
Jaholatdan qo‘rqishi kerak.
Har bir bola,
Har bir yosh,
Navoiyni o‘qishi kerak...
Vatan azal bitta Vatandir,
U biz uchun so‘lmas chamandir,
Shul sababdan bola chog‘lardan,
Maysa chog‘lar, lola chog‘lardan
O‘zni urib yulqishi kerak,
Navoiyni o‘qishi kerak,
Dilga nedir yuqishi kerak!¹⁷

Xuddi mana shu nuqtalar bo‘lajak adabiyot o‘qituvchilarining sohaga tayyorgarlik jarayonida diqqat markazida turishi lozim. Bo‘lajak adabiyot o‘qituvchisining adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy jarayon haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari qanchalik asosli va muhim bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning o‘zi bilan kifoyalanib qolish pedagogik faoliyatdagi tegishli maqsad, vazifalarni amalga oshirish imkonini bermaydi.

Biroq darslarda mumtoz asarlarni o‘rganish xalq og‘zaki ijodi, yangi davr adabiyoti namunalarini o‘qitishdan ko‘ra murakkab. Ana shu murakkablik nimada ekanligini aniqlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish galdagi vazifalar

¹⁶ Vohidov E. Saylanma. 3-jild. –T.: Sharq, 2001.

¹⁷ Sayyid Sirojiddin. Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni. –T.: Sharq, 2005, 9-10-b.

qatorida turibdi. Bizningcha, mumtoz adabiyot namunalari o'qitishdagi murakkabliklarning ichki va tashqi omillari mavjud. Ichki omillarga mumtoz adabiyotning shakli, mazmuni va tabiatida mavjud bo'lgan xususiyatlar kiradi. Tashqi omillar esa qarash, munosabat va yondashuvlarning turlichaligidan iboratdir.

Mumtoz adabiyot namunalari tushunish va tushuntirishdagi murakkablik, avvalo, asarlarning lug'at tarkibidagi qiyinchilikda ko'rinadi. Haqiqatan, mumtoz asarlarda arxaik va o'zlashgan so'zlar ko'p qo'llangan. Olinma so'zlarning aksariyati arab va fors tillariga tegishli bo'lib, ularning lug'aviy hamda matniy (kontekstual) ma'nosini aniqlash lozim bo'ladi. "Agar to'liqcha so'zlar o'zbek tiliga so'zlashuv tili orqali, adabiyot orqali va boshqa yo'llar bilan kirgan bo'lsa, arab so'zlari, birinchidan, kitob, madrasa, din orqali kirgan. Ayrim mutaxassislarining fikricha, o'zbek adabiy tilida arabcha so'zlar bundan 20-25 yil ilgari lug'at tarkibining 13% dan 20% gacha bo'lgan miqdorini tashkil etgan"¹⁸.

Ilm-fan, ta'lim, adabiyot va san'atda arab va fors tillarining mavqeyi asrlar davomida baland bo'lgan. Bir necha yuz yillar davomida ilmiy asarlarning aksari arab tilida, badiiy asarlar turkiy til bilan bir qatorda fors tilida yaratilgan. Shu bois bu ikki tilga mansub lug'aviy birliklar o'zbek so'zlashuv hamda kitobiy tilidan mustahkam joy olib, ko'plab so'zlar faol lug'at boyligimizga aylangan. Mumtoz shoir va nosirlarning deyarli barchasi arab va fors tillari mukammal o'rgatiladigan madrasalarda o'qiganlar, bu tillarda yaratilgan juda ko'p asarlarni o'qiganlar. Ularning badiiyat tafakkuri shu tillarda yozilgan mumtoz asarlar ta'sirida shakllangan. Ijodiy ong, badiiy tafakkurdagi tayyor forsiy, arabiy adabiy qoliplar, shakl va iboralar asarlarni yaratish jarayonida o'z-o'zidan quyilib kelavergan. Natijada o'zbek tilining faol lug'at boyligidan joy olmagan, so'zlashuv tiliga o'zlashmagan talay so'zlar mumtoz asarlarda qo'llanilgan. Ayni shu faqat badiiy asarlardagina uchrab, tilga o'zlashmagan so'zlar mumtoz asarlarning "qiyim"ligiga sabab bo'layotgan ichki omildir. Haqiqatan ham, o'qilayotgan asardagi har uch-to'rt so'zning bittasi notanish, nutqiy faoliyatida qo'llanilmagan bo'lsa, kishining

¹⁸Aliyev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. -T.: O'zbekiston, 1994, 27-b.

ishtiyogi so'nadi. O'quvchiga, hatto o'qituvchiga ham lug'atdan foydalanib matndan ma'no chiqarish oson bo'lmaydi.

Mumtoz matnlarni tushunishga o'quvchilarda arab va fors tillardan o'zlashgan affiks, prefiks va affiksoidlarning ko'p qo'llanishi ham to'siq bo'ladi. Gap o'zbek tiliga o'zlashib ketgan, ammo bu qo'shimchalar qo'shilishi tufayli "begonalashib", tushunarsiz bo'lib qolgan so'zlar haqida bormoqda. Aslida bu tillardan ko'plab so'zlar tilimizga o'zlashgan. Masalan, arab tilidan o'tgan "taraf" so'ziga ko'plik ma'nosini beruvchi "-a" qo'shimchasini qo'shish orqali yuzaga kelgan atrof so'zi ham alohida leksema sifatida olingan. Shu kabi xabar va axborot, sir va asror kabi birlik-ko'plik munosabati, ajab-taajjub, aloqa-taalluq, sharq-mashriq, qabr-maqbara kabi leksik birliklar alohida mustaqil leksik birlik sifatida o'zbek tiliga o'zlashgan. Ularni o'zbek o'quvchisi yaxshi tushunadi va o'z nutqida faol qo'llaydi. Agglutinativ tabiatga ega bo'lgan o'zbek tilida asos qo'shimcha qo'shilishi natijasida deyarli o'zgarishsiz qo'llanib, leksik ma'no anglatadigan shaklini saqlaganligi tufayli o'zimizniki bo'lib qolgan bir qator chet so'zlarning faol lug'atimizga o'zlashmagan prefiksli va affiksoidli shakllarini nafaqat o'quvchilar, balki kattalar ham tushunmaydilar.

Yana bir murakkablik umumturkiy arxaik so'zlar, qo'shimchalarning hozirgi zamon o'zbek tilidagi muqobilini bilmaslik tufayli yuzaga chiqmoqda. Masalan, 9-sinf darsligidagi Rabg'uziy asarlari uchun berilgan 123 lug'atda izohlangan so'zlarning 25 tasigina arabcha va forscha bo'lib, qolganlari eskirgan va turkiy so'zlardir. Turkiy arxaik qo'shimchalar haqida ham shunday fikrlarni bildirish mumkin. O'zak tanish bo'lsa-da, qo'shimcha xuddi yuqorida ko'rganimiz arab va fors so'zlari kabi so'zning ma'nosini tushunishga "xalaqit beradi". "Qisasi Rabg'uziy" asarida "Andoq ersa ikagu qurbon qiling..." ifodasi bor. Ushbu jumladagi "ikagu" so'zini bolalar bitta "k" bilan yozilgani uchun "tanimaydilar". Uning o'zagining "ikki" ekanligini bilganlar esa qo'shimchani taxminan "ikkisini" yoki "ikkitadan" yoki "ikkita" deya tushunadilar. Faqat ayrim o'quvchilargina "ikkovingiz" sifatida to'g'ri tushunadilar. Shuningdek mazkur asardan olingan "Netak o'lturguni bilmas edi...", "Qobilning o'kunchi Hobilni o'lturmish uchun

ermas erdi...”, “Hobilning qoni yer yuzinga ingranu turur” kabi jummalarni tushunishda o‘quvchilar turli darajadagi qiyinchilikka duch keladilar.

O‘rganilayotgan asar tilining hozirgi tilimizdan farq qiluvchi sintaktik va uslubiy o‘ziga xosliklarga egaligi ham mumtoz matnni tushunishda qiyinchilik tug‘diradi. O‘zbek adabiy tili tarixiga bag‘ishlangan darslik va qo‘llanmalarda mumtoz asarlarning leksik, morfologik jihatlari keng o‘rganilgan holda, sintaksisi, uslubiy tomonlari yaxshi tadqiq etilmagan. Buning natijasida mazkur sathlar yuzasidan o‘qituvchilar yetarli tushunchaga ega bo‘lmaganliklari bois bunday bilimlar o‘quvchilarda ham shakllantirilmaydi. Matnlarda uchraydigan kesim tarkibiga kiruvchi -durur, -turur qo‘shimchalarini o‘quvchilar mustaqil o‘zak sifatida qabul qiladilar. Bir qator darsliklarda bu qo‘shimchalarning o‘zlari birikib kelgan so‘zlardan ajratib berilishi yanglishishni yanada kuchaytiradi. Masalan, “...Do‘st kim turur men bilurmen, siz bilmassiz...” jumlasidagi turur kesimi -dir qo‘shimchasi ekanini bilmaslik oqibatida “Do‘st kim turadi men bilaman, siz bilmassiz”, “Do‘st qayerda turadi men bilaman, siz bilmaysiz” tarzida tushunishlar kuzatilishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, mumtoz asarlarni o‘rganishda fanlararo aloqani, xususan, ona tili bilan mustahkamlab borish, ayniqsa, tarixiy va arxaik so‘zlar, qo‘shimchalar haqida ham ma‘lumotlarni o‘rnida izohlab, tushuntirib berish o‘quvchi savodxonligini, bilim darajasini yana-da boyitib boradi. Ma‘lumki, mumtoz asarlarning ayrim qirralari arab tili va yozuvi bilan ham bog‘liqdir. Maktab uchun dastur va darslik tuzgan mualliflar yozuv bilan aloqador san‘atlarni yosh avlodga ilinganlari bois majmualarga kitobat san‘ati asosiga qurilgan she‘rlarni, tajnisga asoslangan jummalarni kiritganlar.

Mumtoz adabiyotni o‘rgatishdagi keyingi murakkablik tasavvuf ta‘limotining mumtoz asarlar poetikasiga ta‘siri masalalari bo‘yicha o‘qituvchilar bilimining yetarli emasligidadir. Tasavvuf bizda nisbatan keyinroq kirishilgan ilm bo‘lib, unga bo‘lgan munosabat, qarashlar shakllanishi endi rivojlanmoqda. U haqida yetarli tasavvur va to‘xtamga kelish uchun hali ko‘plab ishlar amalga oshirilishi zarur. “90-yillar boshlarida adabiyot muallimlari tasavvuf ta‘limoti to‘g‘risida eshitib-eshitmay, dastur va darsliklarga so‘fiyona asarlar kiritilgan edi.

Bugungi kunda ham darsliklarda o'rganish uchun havola etilayotgan mumtoz asarlarning aksariyati tasavvufga u yoki bu darajada aloqador bo'lgan adiblarga tegishli. Ayniqsa, ishqiy mavzudagi she'rlarga munosabatni, tahlil va talqindagi yondashuvni oydinlashtirish zarur".¹⁹

Mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishdagi murakkabliklarning tashqi omillari ham mavjud. Ushbu omillar o'quv jarayoniga bevosita aloqador bo'lmasa ham, lekin bilvosita ta'sir ko'rsatib, adabiy ta'limda muayyan chalkashliklarga sabab bo'ladi. Bu, asosan, adabiyotshunos ollmlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatlari bilan bog'liq holda yuzaga kelmoqda.

Sho'rolar davriga mansub adabiyotshunoslikdagi talay qarashlar, yondashuvlar allaqachon eskirganligi, ularning o'rniga yangicha talqinlar qaror topganligi yaxshi ma'lum. Eskirgan qarashlarning maktab adabiy ta'limiga ko'rsatgan salbiy ta'siri o'z vaqtida olimlarimiz tomonidan tahlil etilgan.²⁰ Masalan, o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalasi xususida 90-yillarning boshidayoq "Davrlar o'zgarishi bilan kishilarning dunyoni tushunish, undan ta'sirlanish, undan obrazli idrok etish hamda tasvirlash, obrazlarni tanlash va aks ettirish, qahramonlar ruhiyatini tushunish va tasvirlash borasidagi to'xtamlarida tub o'zgarishlar ro'y berishidan kelib chiqqan holda davrlashtirish muammosiga yondashilgan dadil va asosli fikrlar bildirilgan edi".²¹ Bu ilmiy-adabiy jamoatchilik tomonidan ma'qullandi va dastur, darsliklarda o'z aksini topdi.

Adabiyotning taraqqiyot bosqichlarini belgilash bu shunchaki rasmiyatchilik uchun qilinadigan ish emas, balki u "badiiy asarni to'la idrok etish, uni to'g'ri anglash, ayni timsollarni his qilish tamoyillarini aniqlash uchun zarur"²² ekanligi tufayli adabiy ta'limda o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Adabiyot o'qitishda, badiiy matnni o'rganishda asarning qaysi davr mahsuli ekanligi, u davrga xos bo'lgan badiiy-estetik tafakkur darajasi, obrazlar dunyosi, til va tasvir vositalarini to'g'ri va to'liq idrok etilgandagina kutilgan samaraga erishish mumkin. "Ilmdagi

¹⁹Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi. 2009. 39-40-b.

²⁰Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida: adabiyot o'qitishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yoz. diss. –T.: 1996.

²¹Yo'ldoshev Q. Tahlil mashaqqatlari. "O'zAS" gazetasi, 1993/ 20.

²²Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006, 12-b.

yangi, tasdiqlangan, qaror topgan qarashlar yig'indisi sifatida yaratilgan kitoblardagi g'alatiliklar (eskicha yondashuvlar) kishini hayron qoldirishi tayin. O'qituvchi buni o'quvchisiga qanday tushuntiradi? Bu kabi ilmiylikdan yiroq qarashlar, maqolalar, tadqiqotlar bugungi kunda ozmi-ko'pmi uchrab turishi bor gap. Shu bois ular "Tadqiqotchilarning barchasi o'zi o'rganayotgan shoir ijodini tasavvufga olib borib bog'laydi, lekin talqin va tahlilda birorta ham tasavvufiy manbaga murojaat qilmaydi. Nahotki, tasavvufga oid birorta ham e'tiborli manbani ko'rmay turib u haqida yozish mumkin bo'lsa?!"²³ qabilidagi e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Bunday qo'llanma, maqola va tadqiqotlarni o'ziga asos qilib olgan muallimlar adabiyot o'qitishning ilmiy-tadqiqiy vazifalarini hal etishda xatoliklarga yo'l qo'yishlari, o'quvchilarga noto'g'ri bilim berishlari mumkin".²⁴

Demak, shuning uchun ham bu kabi murakkabliklarning oldini olish uchun birinchi navbatda, yangi nashr qilinayotgan adabiyotlardagi bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish lozim bo'ladi. Ikkinchidan esa, bugungi kunda respublikamizning tanikli metodist olimlari tomonidan umumta'lim maktabarining har bir sinfi uchun alohida "O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma"lar yaratilyaptiki, bu jihat ham o'qituvchining ishini biroz bo'lsa-da yengillashtiradi. Darsni o'tish jarayonida nimalarga e'tibor qaratish lozimligi, xususan, qanday usullardan foydalanilganda yaxshi samara beradi, ya'ni ko'zlangan natijaga erishish mumkin kabi muammolarni bartaraf etilishiga ko'maklashadi. Va, eng asosiysi, o'qituvchining o'zi tinimsiz ravishda izlanishda bo'lishi, zaruriy adabiyotlar, jumladan, lug'atlar bilan (Navoiy asarlari uchun lug'at) qurollanishi da'kor. Shundagina bu kabi murakkabliklarning yechimini topishga erishish mumkin bo'ladi.

²³ Haqqulov I. Kim nimaga tayanadi? –T.: Zarqalam, 2006, 83-b.

²⁴ Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2009, 47-b.

II BOB. MUMTOZ HIKOYALARNI O'RGATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

II.1. Maktabda mumtoz hikoyalarni o'qitishning estetik-pedagogik asoslari.

Maktabda adabiy ta'limning g'oyat muhim yumushlaridan biri "o'qitishning maqsadi, vazifasi va mazmunini aniqlab olishdan iboratdir. Chunki bu tushunchalar adabiyot o'qitishning asoslarini tashkil etuvchi kategoriyalardir. O'zbek pedagogikasida adabiyot o'qitishning bosh maqsadini professor Q.Yo'ldoshev ilk bor to'liq va to'g'ri belgilab berdi: "...barkamol shaxsni shakllantirish marrasi milliy maktablarimizda adabiyot o'quv predmetini o'rganish uchun bosh maqsad bo'lishi mumkin ekanligini qadimiy qadriyatlarimiz ham, ma'naviy an'alarimiz ham, uzoq tarixga ega pedagogik amaliyotimiz ham, kishilarimiz ruhiy olamiga chuqur singib ketgan badiiy adabiyotimiz ham taqozo etadi. Har qanday pedagogik faoliyatga kirishishdan oldin kimni?, nima uchun?, nimani? degan savollarga javob berish zarurdir. "Kimni?" degan savolga javob berish shuning uchun muhimki, bu savol pedagogik faoliyatning maqsadini aniqlaydigan javobni talab qiladi. "Nima uchun?" savoli esa adabiy ta'limning vazifasini belgilashni talab etadi. "Nimani?" so'rog'iga adabiyot o'qitishning mazmunini ko'rsatish javob bo'ladi".²⁵

Barkamol shaxs, komil inson g'oyasi o'zining bir necha asrlik tarixiy ildizlariga, tajriba va an'alariga ega. Mumtoz adabiyotimiz uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilgan tasavvuf ta'limotida ham komil inson tasvir markazida bo'lgan. Barkamol shaxsni shakllantirish nafaqat adabiy ta'lim, balki O'zbekiston maktablaridagi barcha fanlarni o'qitishdan ko'zlangan bosh maqsaddir. "Barkamol avlod orzusi" kitobida barkamol shaxs tarbiyasiga davlat miqyosida nechog'lik jiddiy ahamiyat berilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin²⁶. Ta'lim tizimidagi har bir predmetning bu borada muayyan imkoniyatlari bor. Lekin ularning har biri shaxs komilligining qaysidir bir sifati, jihatini shakllantirishda alohida mavqega, imkoniyatga ega. Adabiyot esa o'quvchi shaxsiyatida ruhiy poklik, ma'naviy yuksaklik sifatlarini tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Birinchi

²⁵ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996, 35-b.

²⁶ Barkamol avlod orzusi. – T.: "Sharq", 1999.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta"²⁷.

Mumtoz adabiyot namunalari adabiy ta'limning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishida bemisl imkoniyatlarga ega. Ana shu maqsad va vazifalarga mos keladigan adabiy ta'lim mazmunini belgilab olish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. "Ma'lumki, o'quvchilarga beriladigan bilimlar va ularga singdiriladigan amaliy ko'nikmalar tizimi muayyan hujjatlar, darsliklar va qo'llanmalarda aks etadi. Ayni shu narsalar ta'lim mazmuni degan tushunchani ifoda etadi"²⁸. Mustaqillikning ilk yillaridayoq o'zbek adabiyoti predmetidan adabiyotshunoslik va pedagogika ilmlarining so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirgan dasturlar tuzildi va ular asosida darsliklar yaratila boshladi. O'quvchilarni komil inson sifatida tarbiyalashda, albatta, dastur va darsliklardagi izchillikka e'tibor qaratish bilan bir qatorda ularga adiblarimizning eng sara asar namunalarini kiritish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham inobatga olgan holda asarlarni tanlash darkor. Metodika qaysi mumtoz asarlar qaysi sinfda, nima uchun, qancha va qanday o'rganilishi kerak kabi savollarga javob berishi lozim. Jumladan, maktab darsliklaridan o'rin olgan, o'quvchilarga yod bo'lib ketgan asarlarni qayta akademik litsey dasturida bermaslik lozim. Ularga ijodkorning boshqa asar namunalarini taqdim etish kerak. Bu bilan o'quvchilarning bilimi yanada mukammallashib, tasavvur va taxayyul olami kengayadi.

Maktabda 5-sinfdan boshlab mumtoz namunalar bir qadar tizimli o'rganila boshlanadi. Ayrim darsliklarda mumtoz namunalarning murakkabligini, arabiy, forsiy o'zlashmalarga nihoyatda boyligini, sintaktik jiha'dan shu tillarga xos izofa, inversiyalar mo'l matnlar berilganligini kuzatishimiz mumkin. Bu, albatta, 5-sinf o'quvchisiga qiyinchilik tug'diradi va o'z navbatida, bu holat bolada mashg'ulotga nisbatan salbiy munosabat paydo qilishi, ya'ni uni o'qishdan bezdirib qo'yishi

²⁷ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T. Ma'naviyat, 2008. 136-b.

²⁸ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. 49-b.

mumkin. Yoki aksincha, ba'zi darsliklarda bunday murakkab matnlarni o'quvchilar hazm qilolmasligi e'tiborda tutilgan holda, ularning nasriy bayoni berilganligini kuzatamiz. Darsda faqat nasriy bayon o'qitilib, uning mazmuni so'rab olinishi natijasida o'quvchi mumtoz matnni ko'rganda uning nasriy bayonini axtaradigan, asl matnni o'qishga harakat qilmaydigan, jo'shqinlik, intiluvchanlik, o'z mehnatidan zavqlanish tuyg'usidan benasib bo'lgan shaxsga aylanadi. Demak, mazkur holatni bartaraf etish uchun mumtoz namunalarni berishda, birinchidan, tadrijiylikka – osondan qiyinga, oddiydan murakkabga borish tamoyiliga amal qilish zarur. Ikkinchidan, mumtoz asarlar matnini o'quvchilarga hozirgi tilga tabdil qilmay, asl (original) shaklida o'rgatish, ayniqsa bu jarayonni ilk saboqlardanoq boshlash lozim bo'ladi. Bu esa o'quvchining fikriy qobiliyati ortishiga, teran mushohada, ijodkorlik va tadqiqotchilik faoliyatining shakllanishiga asos bo'ladi. Eng asosiysi, biz farzandlarimizni mumtoz adabiyotga yaqinlashtiramiz, ularni mustaqil o'qib, bahra olishlariga yo'l ochamiz.

5-sinfdan tili bir muncha sodda, ifoda tarzi bugungi adabiy tilga yaqin mumtoz matnlarni berib borish bilan bolalarning matnga kirish, uning mazmun-mohiyatini anglash, badiiyatni his qilish ko'nikmalarini shakllantirib borish mumkin. Keyingi sinflarda nazariy ma'lumotlar, metodik tavsiyalar berish barobarida matnlar sekin murakkablashtirib boriladi. Matnni to'g'ri tanlash hal qiluvchi ahamiyatga ega g'oyat muhim masaladir. Masalan, 5-sinfda (oldingi nashrlarda) Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan olingan "Olim ilmi elga bo'ladi mash'al", "Shoirilar so'z teruvchilar", "Dehqonning qo'li keng", "Savdogar nomingni elga yetkazar", "Chorvador – hamma hayvonlarga sardor", "Hayratli ishlarning egalari" kabi matn parchalari, Ahmad Yassaviy hikmatlaridan nodonlar va nafsni qoralovchi she'rlar, Navoiy ruboiylari, Xoja hikoyatlari, 6-sinfda Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridan "Qisasi Safiy Odam alayhissalom" hamda "Qisasi Nuh nabiy alayhissalom" bobidan parchalar, Navoiy va Boburning kichik janrlardagi asarlari, Xo'janazar Huvaydoning "Rohati dil" dostonidan "Bayoni g'addoriyi dunyo" bobi, 7-sinfda Atoyi g'azallari, Navoiyning "Shoh G'oziy" va "Mehr va Suhayl" hikoyatlari, Sayfi Saroyining "Guliston bit-

turkiy” asaridagi bir qator hikoyatlar, Turdi, Uvaysiy g‘azallaridan namunalari kabilarni o‘rgatish maqsadga muvofiq ekanligi tajriba-sinovlardan ma’lum bo‘lgan.

8-sinfdan boshlab mumtoz namunalari mazmunan kengroq, mohiyatan chuqurroq tahlil etila boshlanadi. Tasavvuf ta’limoti va so‘fiylik adabiyoti haqida ma’lumot, Yassaviy hikmatlari, Xorazmiy “Muhabbatnoma”si, Lutfiy, Navoiy, Nodira ijodi, xususan, lirikasidan namunalari, 9-sinfdan “Qisasi Rabg‘uziy”dan parchalar, Navoiy “Xamsa”sidagi besh dostonidan parchalar o‘qish va tahlillash, Mashrab, Ogahiy, Furqat lirikasi kabilarga o‘rin berish maqsadga muvofiqligi aniqlangan.

Ko‘rinadiki, Rabg‘uziy hikoyatlari bilan o‘quvchilar umumta’lim maktablarining 6- va 9-sinflarida tanishadilar. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar tomonidan tuzilgan 6-sinf darsligida (2002) “Qisasi safiy Odam alayhissalom” hamda “Qisasi Ruh nabiy alayhissalom” bobidan parchalar berilgan, Ahmedov S. va boshqalar tomonidan tuzilgan darslik-majmuada (2005) 6 ta hikoyat hozirgi tilga tabdil qilib berilgan. Mazkur parchalarning tavsiya etilish sababini quyidagicha izohlash mumkin:

– asar o‘zbek mumtoz adabiyotining noyob durdonalaridan bo‘lib, adabiyot o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad hamda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda beqiyos manba sanaladi;

– asar Sharq adabiyoti badiiyati, obrazlar tizimi, g‘oyaviy yo‘nalishlarining asosini tashkil etuvchi islom dini va tasavvuf g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lgan mumtoz namunalarni to‘g‘ri anglash, shuningdek, agiografik (avliyo, valiyilar haqidagi bitik) asarlarning o‘ziga xosligini idrok etish tomon yo‘l ochadi;

– 5-sinfdan Xoja hikoyatlari vositasida shakllangan mumtoz nasr namunalari o‘qish, uqish va tahlillash ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Hikoyatlardan ko‘ra bu matnlar hajmining kattaligi, ko‘tarilgan muammolar qamrovi hamda xilma-xilligi bunga imkon beradi;

– hikoyatlarda bu borliqning ilohiy bir mohiyati, unda insonning markaziy o‘rin tutishi, barcha voqeliklar ortida ramziy majoz y shaklda ulkan hayotiy

haqiqatlar yashiringanligi va aksariyat mumtoz namunalar ana shunday tushunilishi lozimligi o'quvchilarga singdira boriladi;

- didaktik tadbirlar to'g'ri qo'llanib, tahlil ishtirokchilarining fikrlash mustaqilligiga e'tibor qaratilsa, o'quvchilarning inson va hayot voqeliklariga qarashlari, munosabatlari o'zgaradi;

- amaliyotda bu matnlarni o'rganishga doir ijobiy natijalar bo'lib, Andijon tumani 13-maktab o'qituvchisi Sharobiddin Hasanov shu mavzu yuzasidan o'zi olib borgan ishlar va olingan natijalarni umumlashtirib, "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida (2008.5-son) maqola e'lon qilgan.

U o'z maqolasida darsliklarda mumtoz asar tabdilini bermaslik lozim degan xulosaga keladi. O'quvchi o'zi mehnat qilib, asar mag'zini chaqishga odatlansa, bu ko'proq ijobiy samara berishini, o'quvchi o'zida kuch, g'ayrat, shijoatni his qilishini, unda teran mushohada, mehnatsevarlik, ijodkorlik, tadqiqotchilik qobiliyati rivojlanishini, mumtoz asarlarga muhabbat, uni o'rganishga intilish, ishtiyoq paydo bo'lishi, o'z mehnati samarasidan lazzatlanish, mumtoz asarlardan bahra olish tuyg'usi shakllanishini ta'kidlaydi.

11.2. Mumtoz hikoyalarda ramz va timsollar hamda ularni anglash yo'llari.

Adabiy ta'lim uchun belgilangan bosh maqsad — barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirish uchun har qanday ijodiy, ijtimoiy faoliyatda bo'lganidek, uning falsafiy, nazariy asosi bo'lmish metodologiyani belgilab olish zarur. Bu borada ham professor Q.Yo'ldoshev fikrlariga murojaat etamiz: "...musulmon Sharqi uchun butun olam hodisalarini izohlaganda ham, badiiy ijod namunalari tushuntirganda ham asrlar mobaynida qo'l kelgan tajalli, jilva nazariyasi mavjuddirki, u badiiy voqelikni boshqa har qanday qarashlardan ko'ra to'laroq anglatishga qodirdir. Qadim Turkistondagi maktablarda badiiy adabiyot asrlar davomida tajalli nazariyasiga tayanilgan holda o'qitilib kelingan. Negaki, badiiy adabiyotning, chinakam badiiy asarlarning asosiy qismi yaratilishida tajalli tamal toshi vazifasini o'tagandir. Tajalli olam hodisalarini anglatishda tasavvuf ta'limoti namoyandalari asoslanadigan nazariy qarashdir. Bu nazariyaga tayanadigan adabiy ta'lim o'quvchilarda ma'naviy sifatlarning shakllanishiga, bolalarda yaratuvchining qudratidan hayratlanish, qahridan qo'rqish, go'zalligidan zavqlanish singari hislatlarni barpo etishga ahamiyat beradi. O'quvchilarning qalbini tarbiyalashga, tuyg'ularini, hissiyotlarini noziklashtirishga diqqat qiladi. Bunday tamoyillarga tayanib ish ko'radigan maktab o'quvchilari o'zgalarning g'amiga sherik bo'lishga, adolatsizlikka befarq bo'lmaslikka, go'zallikdan lazzatlanishga qodir kishilar bo'lib tarbiyalanadilar. Tajalli asosida ish ko'radigan adabiy ta'lim barkamol shaxs tarbiyalashni maqsad deb hisoblaydi"⁹⁵.

Mumtoz Sharq hamda o'zbek adabiyoti namunalari bu nazariy asossiz tushunib ham, tushuntirib ham bo'lmaydi. Adabiy ta'limdagi eng katta qusur o'rganilayotgan asarning metodologik asosini yaxshi bilmaslikdir. Natijada muallif voqelikni qanday tasvirlashi va nima uchun aynan shunday tasvirlayotgani asar o'rganilayotgan mashg'ulotlarda aksar hollarda nazardan chetda qoladi. Shuning uchun metodologiyaning mohiyati, ahamiyati va mazkur predmetga nima uchun u asos bo'lishi kerakligi alohida tadqiq etilishi va amaliyotchi o'qituvchilar va bo'lajak pedagoglarga yetkazilishi zarur.

Tajalli nazariyasi tasavvufdagi vahdat g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Ibn Arabiy (1290-yilda vafot etgan) ilk bor vahdat ul-vujud ta'limotini o'z asarlarida

ilmiy asoslab bergan edi. Bu ta'limotning xususiyatlari, unda zot va sifat, Alloh va olam munosabatlari, vahdat ul-vujudning foydasi hamda tanqidi Usmon Turarning "Tasavvuf tarixi" kitobida bayon etilgan. Bu ta'limotga ko'ra bu borliq olam, moddiy dunyo yagona xoliq Yaratuvchi zotning tajallisidir. "Har narsa unda ko'rinadi; ism, fe'l va sifatlar jihatidan ham borliqlar olami U ko'ringan oyina maqomidadir. Borliqlar olami U bilan qoimdir. Demak, Alloh zoti jihatidan yagona borliqdir va butun mavjudotning o'zagini tashkil qiladi. Olamda hamma narsa Uning zoti bilan qoimdir. Undan tashqaridagi borliqlar Uning ismi, fe'l va sifatlarining tajallilaridan iborat bo'lib, asli qoim borliqlari yo'q, haqiqiy vujud Allohga oiddir".

Tajalli bilan tanishish insonga nima beradi? Turk olimi I.F. Ertug'ul tajalli bilan oshno bo'lish insonga bir qator ma'naviy manfaatlar yetkazishini qayd etib o'tgan edi:

1. Inson bu falsafa tufayli o'zining ilohiy sifatlariga erishganligini ko'radi va haqiqiy bahosini anglaydi, o'zini tanigach, Parvardigorin ham taniydi, biladi.
2. Bu bilimi orqali yashirin shirkdan haqiqiy tavhidga erishadi.
3. Tavhidda kamolotga erishgani bois, ibodatlarida ixlos paydo bo'ladi. So'fiylarning qalbiy kashflari ham aslida shu ixlosning natijasidir.
4. Bu falsafaning fazilatlarini fahmlagan kishiga mutashobih (tushunilishi qiyin) oyatlarning ma'nosi ayon bo'ladi.
5. Vahdati vujud bilan inson Allohning buyukligini va o'zining ojjizligini idrok etadi. Maxluqotga Haqning tajallilari deya boqadi va ularga rahm-shafqat ila muomala qiladi.
6. Vahdati vujudga ishonganlar, Allohning birligini isbotlashga urinmaydilar, chunki undan boshqa borliqni bor deb qabul etmaydilar.
7. Vahdati vujud muroqabasida davom etish — Allohga erishmoq uchun eng qulay va qisqa yo'ldir.
8. Vahdati vujud moddaparastlar bilan tabiat olimlarining fikrlarini rad qilib, ularni ishontirmoq uchun eng uyg'un fikr tizimidir.
9. Vahdati vujudni anglagan kishi Alloh ism va sifatlarining tajallisi bo'lgan tabiatni tanish yo'lida yanada ko'proq g'ayrat qiladi. Allohning zoti ma'lum emas. U faqat ism va sifatleri bilangina ma'lum. Tabiatni tadqiq etish ham insonni dunyoda va oxiratda saodatli qiladi.

Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan barcha asarlar hamd va na'tlar bilan boshlanadi. Ularda mualliflar Alloh va odam munosabati hamda olamni qanday idrok etishlarini, asosan, mazkur nazariya asosida bayon etadilar. Demak, muqaddima

shunchaki an'ana emas, ayni paytda u muallifning o'z ijodiy metodi bilan kitobxonni tanishtirish vositasi hamdir.

Mumtoz adabiyotda fikr va tasvir ko'pincha ramziy qobiqqa o'rab, majoziy bo'yoq bilan jilolab bayon etiladi. Ko'pincha har bir obraz yoki badiiy detal qaysidir bir ilohiy voqelikka, falsafiy mohiyatga ishora qiladi, uni izohlaydi, tasvirlaydi, tavsif etadi. Bir badiiy asarda go'yo ikkita mustaqil matn paydo bo'ladi. Ularning birinchisi zohiriy — yuzaga qalqib turgan ma'no qatlami, ikkinchisi esa ramz yoki majozlar ishorasi orqali anglashiladigan botiniy - ichki ma'no qatlami deb ataladi. Zohiriy ma'no qatlamidagi dunyoviy tushuncha va timsollar botinda butunlay boshqa, kutilmagan yangi mazmunga ega bo'ladilar.

Asarning asl — botiniy ma'nosini anglash uchun o'quvchidan katta tayyorgarlik, nozikfahmlik, izlanish talab etiladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: mumtoz adiblar asarlarini bu yanglig' ramz va majozlarga o'ramay, ochiq ifoda etsalar bo'lmaydimi? Shunda bu haqiqatlarni ko'pchilik oson tushunib, hayotlariga tatbiq etgan bo'larmidi? Gap shundaki, haqiqat qanchalar yalang'och bo'lsa, shunchalar beqadr bo'ladi. Ramz va majoz pardalarini ko'tarib unga yetishish, go'yo mashaqqat bilan visolga erishishdekdirki, lazzati ham, qadri ham baland bo'ladi va xotirada uzoq saqlanadi. Qolaversa, ramz va majoz kabi badiiy unsurlar o'quvchi badiiy didini o'stiradi, u endi badiiy asarning yuzaki shakli, zohirdagi ma'nosi bilangina kifoyalanmay, uning matni bag'riga cho'mishga harakat qiladi. Eng asosiysi, tarbiyalanuvchilar borliqdagi jonli, jonsiz mavjudotlar, insonning o'zi, har bir a'zosi — barcha-barchasi zamirida inson uchun zohirga qaraganda muhimroq bo'lgan ibrat-ishoralar mavjudligini anglab yetadilar. Botinda pinhon bu ibratlarni faqat ko'ngil ko'zi bilan ko'rish, ma'rifat qulog'i-la eshitish mumkinligini his etadilar. Dunyo voqealari orqali haqiqatni anglatish Qur'on usuli ekanligi bu ilohiy bitikda Yaratganning o'zi tomonidan bir necha bor ta'kidlangan. Mana ularning biri: "Osmonlar va Yerning yaratilishida, tun va kunning o'rin almashib turishida aql egalari uchun alomatlar bordir. Ular turib ham, o'tirib ham, yotib ham Allohni zikr etadilar va Osmonlar-u Yerning yaratilishi haqida fikr yuritadilar: Ey Robbimiz! Bu (koinot)ni behuda yaratmagansan..." Demak, yosh avlodni Osmon-u Yerning yaratilishi

haqida fikr yuritadigan aql egalari qilib tarbiyalash lozim. Bu o'rinda «aql egalari» birikmasi ayricha ma'no tashlydi. Negaki, gap aql qullari emas, aynan aql egalari haqida boryapti. Aqlga qullik nafsga qaramlikdir. Chunki nafs har qanday yetuk aqlni orqasidan ergashtirib, egasini kishi xayoliga ham keltirishi qiyin bo'lgan jinoyatlarga, zalolatga boshlab ketadi. Aql shaytoniy nafs uchun ishlay boshlaydi. Bunday aql bandasi dunyoni faqat nafsoniy istaklar ko'zi bilan ko'radi, xolos. Aql egasi bo'lmoq esa o'z nafsini ustidan egalik qilmoqlikdir. O'z aqliga egalik qilish, aql imkoniyatlarini ezgulik manzili tomon yetaklash eng katta saodat ekanligini tarbiyalanuvchilarga singdirish lozim, toki ularda qalb ko'zlari ochilsin. Shunda o'quvchilar dunyo voqeliklarining har biriga ibrat nazari bilan qarashga, borliqdagi Buyuk Yaratganning jamolini, jalolini, kamolini ilg'ash, mushohada qilishga, ularning zamiridagi hikmatni o'qishga intiladilar.

Turkiy nasrning eng qadimgi namunalaridan bo'lgan «Qisasi Rabg'uziy» asaridagi hikoyatlarni mutolaa qilish jarayonida ushbu hikoyatlarda ham o'ziga xos ramziylik mavjud ekanligining guvohi bo'lamiz. «Sulaymonning qarinchqa bilan so'zlashgani»²⁹ hikoyatida o'zining adolatparvarligi bilan kishini hayratga soluvchi qarinchqa ramziy obrazdir. Qarinchqa, ya'ni chumoli obrazi, odatda, mehnatsevar, tirishqoq inson ramzi sifatida qaraladi. Bu hikoyatda esa qarinchqa adolatli, xalqi uchun chin yurakdan qayg'uradigan, hatto ular uchun ke'ak bo'lsa, jonini ham fido qila oladigan g'oyatda ziyrak hukmdor ramzidir. Uning ismi Mindir edi. Mindir boshqa chumolilar Sulaymon qo'shining oyog'i ostida qolib, halok bo'lmasliklari uchun ularga qochishlarini va uylariga kirishlarini buyuradi. O'zi esa qochmaydi. Bu holat Sulaymonni hayratga soladi. Taxtdan tushib, qarinchqaning yoniga keladi va undan so'raydi: «Ey qarinchqa, qarinchqalaringni naluk qochurding?» Savolga qarinchqa shunday javob beradi: «Sen maliksen, men ham malikmen. Mavlo Taolo manga qirq tabaq yer-mulk berdi. Tekma tabaq

²⁹ Носируддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. Иккинчи китоб. — Ў.: Ёзувчи, 1991. 35-36-бетлар.

yerda sarhanglarim bor. Tekma bir sarhang birla qirq ming qarinchqa kerak cherik bor. Mavlo Taolo yorlig'i bo'lsa yer yuzida bir dushman qo'ymag'ayman". Sulaymon yana so'raydi: "Andog' cherikingni naluk qochirding?" Qarinchqa: "Sening cheriking kecharda bilmayin bosqaylar. Ular halok bo'lg'aylar deb qochurdum". Sulaymon: "Sen naluk qochmading?" Qarinchqa: "Men bularning ulug'iman. Ulug' raiyatlarg'a mushfiq kerak. Balo kelmishda o'zing balog'a qarshi tutg'u kerak". Qarinchqaning ushbu gaplarining o'ziycq uning qanday hukmdor ekanligini ko'rsatib turibdi.

Hikoyatni o'qish davomida qarinchqa donishmard inson ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bu Sulaymonga bergan savollarida va unga aytgan gaplarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ular orasidagi gaplar g'oyat ta'sirchanligi bilan kishining e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Qarinchqa aydi: "Mavlodin ne tilading?" Sulaymon aydi: "Andoq mulk tiladimki, mandin o'zga kimersada bo'lmasin". Qarinchqa: "Bu so'zdin hasad isi keladur. Menga bo'lsin, o'zgalarg'a bo'lmag'ay". Ko'rinadiki, qarinchqa o'zaro tenglik tarafdoridir. Bunda Olohning barcha maxluqotini teng qilib yaratgani ta'kidlanadi. Qarinchqaning "Toqi ne tilading?" savoliga Sulaymon quyidagicha javob beradi. "Yelni tiladimki, manga musaxxar qildi, minib yururman. Asthardin Shomga, Shomdin Astharga bir oylik yer turur. Kunda borurman ham kelurman". Qarinchqa aydi: "Ma'nisi ul bo'lur: Sening ilkingdagi mulking qamug'i yel turur. Ani minguncha ma'rifat markabin minsang, senga yaxshiroq bo'lur. Ko'z yumub ochg'uncha bir soatda Arshg'a tekkay erding". Asardagi qarinchqa obrazida orif kishi siymosi mujassamlashtirilgan. U hukmdor sifatida barchani ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi. Zero, ma'rifat kishini saodatga chorlaydi.

Asarda "Ilon va Qarlug'och"³⁰ hikoyasi ham muhim o'rin tutgan bo'lib, undagi voqealar Nuh alayhissalomning kemasi ichida sodir bo'ladi. Hikoyada sichqon, yo'lbars, mushuk, ilon, ari, qarlug'och kabi hayvon va jonivorlar ishtirok etib, ular ichida ilon va qarlug'och asosiy o'rin tutadi. Qahramonlarning muayyan

³⁰Посируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий.Биринчи китоб. --Т.: Ёзувчи, 1990.43-44- бетлар.

xususiyati ko'proq ular amalga oshirgan ish, faoliyat bilan ko'rsatib beriladi. Kema tubini sichqon teshib, uni suv bosa boshlaganida, Ilon ke na teshigini bir shart bilan berkitishga rozi bo'ladi. Uning sharti bo'yicha to'fon tugagach, Nuh yer yuzidagi maxluqotdan qay birining go'shti shirin bo'lsa, ana shuni ilonga doimiy yemish qilib berishi lozim edi. To'fon tugab, kemadagilar quruqlikka chiqqach, Ilon Nuhdan o'z shartining bajarilishini talab qiladi va Nuh chivinni yer yuzidagi mavjud jonzotlarning go'shtidan eng shirinini aniqlab kelishga yuboradi. Ma'lumki, Qaldirg'och chivinning tilini uzib olish orqali odamzodni ilonga yemish bo'lishdan asrab qolgan. Ko'rinadiki, hikoyadagi ilon obrazi insonlarning dushmani ramzi bo'lsa, Qaldirg'och insonga do'st va g'amxo'r qush timsolidir. Qaldirg'och odamzotga yaxshilik tilagani uchun ham ular xonadonlarga in qursalar, bu uy baxtli uy hisoblanadi va insonlar ham hech qachon qaldirg'ochlarga zarar yetkazmaydilar.

Insonlarning mast holda yurishi, umuman, o'tkir ichimliklar ichishni qoralash maqsadini ko'zlovchi "Uzum hikoyati" ni oladigan bo'lsak, undagi asosiy qahramon Shaytondir. Shaytoni mal'un uzumning urug'ini o'g'irlyadi. Bu voqea ham Nuh kemasi ichida sodir bo'ladi. Urug' ekilgach, dastlabgi uch marta sug'orishni unga topshirish sharti bilan shayton urug'ni topib beradi. Chog'ir (ichkilik)ning paydo bo'lishi shu tarzda shayton noni bilan bog'lanadi. Ya'ni shayton insonning ashaddiy dushmani timsolidir. Chog'ir ichgan odamning holati ham nihoyatda ta'sirchan o'xshatishlar bilan tasvirlanadi. Buning uchun tulki, yo'lbars, to'ng'iz timsollaridan foydalaniladi.

"Namrudning ko'kka og'g'ani so'zlari"³¹ hikoyatidagi Namrud uddaburon va ayyor inson ramzidir. Karkas bolalaridan ayyorlik bilan foydalanib, ko'kka chiqib tushgan bu obraz manman inson timsoli hamdir. Hikoyada shuhratparastlik, takabburlik kabi illatlar qattiq qoralanadi. Namrud to'rt yuz yil tangrilikni da'vo qilgan. Xalqlarni sajda ham qildirgan. Erishgan muvaffaqiyatlaridan garangsib qolgan Namrud hech kimni pisand qilmaydigan kimsaga aylanadi, hatto Xudoni

³¹Посируддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий.Биринчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1990. 68-69-бетлар.

ham tan olmaydi. Oxiri uning yo'li do'zaxga ulanadi. U qattiq jazolanadi, og'ir dardga chalinib, xor-zorlikda halok bo'ladi.

Bilamizki, mumtoz adabiyotda juda keng qo'llanadigan Qorun obrazi mavjud. Bu haqida "Qisasi Rabg'uziy"da "Qorun qissasi"³² keltirilgan bo'lib, u Muso payg'ambar xolasining o'g'li bo'ladi. Muso payg'ambar bir kambag'al darveshga beradigan hech narsasi yo'qligi tufayli unga oltin paydo qilish yo'lini o'rgatayotganida buni Qorun eshitib qoladi va yetti kecha-yu kunduz Muso darveshga o'rgatgan usuldan foydalanib, Tangri qudrati bilan oltinchilik qiladi. Boyliklardan xazinalar hosil qiladi. Muso payg'ambar har kuni Isroil xalqini yig'ib, minbarga chiqib, va'z va nasihatlar aytsa, Qorur Muso ro'parasida o'tirib, oltin piyola chiqarib, cholg'uchilarni muhayyo qilib, orqasi va oldida qullari davra tutib, may ichar edi. Tangridan Qorunga molining yarmimi darveshlarga sadaqa qilish to'g'risida farmon bo'ladi. Shunda Qorun: "Men tangringdan hech narsa so'ramayman, mendan ham narsa so'ramasin" - deb sadaqa berishdan bosh tortadi. Shunda Muso Tangridan Qorunga balo yuborishini murojot qilib so'raydi. Tangri "Qaysi baloni xohlaysan?" deganida "Yerni mening ixtiyoriga bergil", deydi. Tangri taolo uning istagini ijobat qiladi. Shunda Muso "Ey yer, yutgil" deya uch marta aytishi natijasida Qorunni barcha mol-dunyosi, saroyi bilan yer butunlay yutib ketadi. Demak, Qorun xasislik, takabburlik timsoli bo'lib, mumtoz adabiyotda odamlarga xos bo'lgan shu kabi illatlarni qoralash maqsadida bu obrazga murojaat qilinadi.

Ma'lumki, "Qisasi Rabg'uziy" asari, asosan, payg'ambarlar haqidagi qissalardan iboratdir. Ular Rabg'uziyning olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan ifodalash uchun vosita bo'lgan. Ularda adib olamning yaratilishi, tabiat va jamiyat hodisalari, insoniy munosabatlar borasida badiiy timsollar vositasida fikr yuritadi. Qissalardagi tarixiy-ilohiy voqealar o'z ildizlari bilan Qur'on va hadislarga, insoniyatning yaratilish va rivojlanish tarixiga, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Mavzu doirasiga ko'ra asardagi qissa va hikoyatlar rang-barang bo'lib, Olamdagi butun mavjudot egasi bo'lgan Allohni ulug'lash,

³² Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1991. 11-14-бетлар.

payg‘ambarlar hayotiga doir lavhalarni eslash, ota-ona va farzand munosabatidan sevgi va sadoqat, vatan va vatanparvarlik, erk va adolat, do‘stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabi mavzular shular jumlasidandir.

Ta’kidlanganidek, asarda Nuh, Muso, Iso, Ya’qub, Sulaymon, Dovud, Muhammad kabi payg‘ambarlar haqida lavhalar keltiriladi. Masalan, Dovud bilan bog‘liq hikoyalarda adib adolat va zulm, hunar egallash, ota-ona va farzandlar munosabati singari muammolarga asosiy e’tiborni qaratgan. “Aytmishlar, Dovud yalavocho tunla o‘zin belgusiz qilib, raiyatlardan so‘rar erdikim, podshoh sizing birla netag muomala qilur. Aytur erdilar: yayloq (juda) odil turur”³³. Bir kecha andog‘ so‘zlayurda Mavlo taolo bir farishtani izdi (jo‘natdi) bir qurtqa (kampir) surati uza. Andin so‘radi: “Podshohingiz netak turur?” Qurtqa aydi: “Ontasi (shunisi) bor kishilar molin yeyur”. Dovud duo qildi: “Iziyo (egam-ey), manga bir harf (hunar) o‘rgatgil. Aning birla qazg‘achiligi (nasibamni) yeyayin. Xalq mani so‘zlamasunlar”. Mavlo taolo taqachilik (temirchilik) san’atin anga o‘gratu berdi. Aytmishlar, temir Dovud ilginda mumdek yumshar erdi, netakkim xamir o‘zgalar ilkinda. Demak, Dovud payg‘ambar timsolida halol, o‘z mehnati bilan kun ko‘ruvchi, boshqalarga zulm qilmaydigan shaxs siymosini ko‘ramiz.

Rabg‘uziy hikoyalarida insonparvarlik, yurtparvarlik, insonni komillik darajasiga ko‘tarish, axloqiy poklik, ma’naviy barkamollik sari undash yetakchilik qiladi. Ular orasida til odobi va qalb pokligi ham alohida o‘rin tutadi. Bu jihatdan “Luqmon va uning xojasi”³⁴ hikoyasi ibratlidir. “Luqmonning xojasi aydi: “Borg‘il, bir qo‘y bo‘g‘izlab, etindin qayu yaxshiroq ersa manga kelturgil”. Qo‘yni bo‘g‘izladi, tili birla yurakin olib keldi. Xojasi so‘radi: “Bularni naluk kelturding?” Aydi: “Qo‘yda tildin yurakdin yaxshiroq yo‘q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdin yovuzroq yo‘q”.

Tilga e’tibor berish, har bir aytiladigan so‘z mas’uliyatini ta’kidlash hikoyadagi asosiy g‘oyaviy-badiiy niyatdir. Shuningdek, bu yerda Luqmonga xos donolik, hozirjavoblik ham ulug‘langan.

³³ Носирулдин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1991. 28-32- бетлар.

³⁴ Носирулдин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1991. 75-бет.

“Odamning yaratilishi”³⁵ hikoyasiga etibor qaratadigan bo‘lsak, Olohdan Odamni yarataman deb xitob qilganida barcha narsalar “Odamni bizdan yaratgil!” deb ta’ma qiladilar.

Tog‘ aydi:

– Men qutlug‘man!

Dengiz aydi:

– Men ulug‘man!

Osmon aydi:

–Men yuksakman!

Shu tariqa barcha narsalar o‘zlarini ulug‘laydilar. Yer esa tavoze bilan:

– Men hammadan zaifman, oyoq ostidaman, menda maqtangulik narsa yo‘q – deydi. Shunda Olohdan Odamni tuproqdan yaratishni ma’qul ko‘radi. Bu yerda ham ramziylikni kuzatishimiz mumkin. Ya’ni tuproq kamtarinlik, tavoze ramzi bo‘lganligi bois bu xususiyatlar Odamga xos bo‘lgan, uning ziynati hisoblanuvchi fazilatlar sirasiga kiradi.

“Qisasi Rabg‘uziy”dagi eng ta’sirli hikoyalardan biri “Rasul alayhissalom vafoti so‘zlari”³⁶ lavhasidir. Bu lavha orqali biz insoniyatning yaratilishiga sabab bo‘lgan zot, olamlarga rahmat bo‘lib kelgan, bashariyatga qiyomatgacha namuna, ibrat va komillik timsoli bo‘lmish Muhammad alayhissalom siymosi bilan tanishamiz. Hikoyada keltirilgan voqea orqali muallif payg‘ambarimiz amal qilgan, uning oddiy kundalik hayot tarziga aylanib ketgan hayotiy tamoyillarni ochib beradi. Ular quyidagilar: birinchidan, insonning boshqa bir odam oldida na moddiy, na ma’naviy va na jismoniy haqi qolmasligi kerak. Bu adolatdan bo‘ladi. Ikkinchidan, Muhammad (a.s.) ham payg‘ambar, ham hukmdor edi. Shunday bo‘lsa-da da’voni qondirishdan bo‘yin tovlamadi. Bu tenglik ramzi edi. Uchinchidan, da’vo qilinguvchining o‘zi turganda (agar da’vogar rozi bo‘lmasa) boshqalarning u uchun omonatni ado etishlari (ya’ni da’voni qondirishlari) mumkin bo‘lmas ekan. Bu hukmdagi ijroning haqiqat tamoyillariga

³⁵ Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1990. 17 -бет.

³⁶ Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1991. 192-196 –бетлар.

asoslanganligidir. Demak, Muhammad (s.a.v.) payg'ambarimiz butun insoniyat uchun, ummatlari uchun jamiki yengilliklarni yaratib bergan, olamni ilm bilan yoritgan, o'gsuz (yetim)larga otalik qilgan, xaloyiqni shariatga da'vat qilgan, yo'lsizlarga yo'l ko'rsatgan Komil inson siymosidir. Shu boisdan ham mumtoz asarlarda payg'ambarimizga na'tlar keltiriladi.

Umuman, "Qisasi Rabg'uziy" turk badiiy nasrining ilk namunalaridan biri sifatida adabiyotimizda o'ziga xos o'ringa ega asar. Unda Adib Nosriddin Rabg'uziyning yuksak badiiy mahorati yorqin namoyon bo'lgan. Mazkur asar o'zining ma'rifiy-tarbiyaviy hamda badiiy-estetik ahamiyati bilan hozirgi avlodlar ma'naviy kamoloti uchun ham qadrlidir.

III BOB. MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O‘RGATISH YO‘LLARI

3.1. “Qisasi Rabg‘uziy” hikoyalarini o‘rganishga zamonaviy yondashuv.

Istiqlol yillarida yosh avlodni ma‘nan yuksak insonlar qilib tarbiyalash davlat inqiyosidagi muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bu borada adabiyot o‘qitishning ham o‘rni benihoya katta. Chunki adabiyotga Sharqda “odobi kulliyot” sifatida qaraladi va o‘z navbatida adabiyot namunalari inson tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda mumtoz hikoyalarni o‘rganishning ham maktab ta‘limida o‘rni benihoya katta bo‘lib, u bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Mumtoz hikoyalar zamonaviy adabiyot namunalaridan tilining bir qadar murakkabligi, ya‘ni arabiy va forsiy so‘zlarning ko‘pligi, shuningdek, turkiy so‘zlarning ham arxaik varianti qo‘llangani bilan ajralib turadi. Bu jihat esa bunday asarlarni o‘rganishda bir qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. O‘z navbatida zamonaviy o‘qituvchidan o‘z ustida tinmay ishlashni, izlanishni talab etadi.

Adabiy ta‘limda mumtoz hikoyatlardan “Qisasi Rabg‘uziy”dan parchalar 9-sinfda o‘rganiladi. Rabg‘uziyning asari oldingi dasturlarga ko‘ra 5-6-sinflarda ham o‘qitilgan. Hozirda bu asar faqat 9-sinfda o‘qitiladi. Darslikda berilgan matn tahlilini amalga oshirishda xilma-xil samarali usullardan foydalanish mumkin.

Asarni o‘rganishga kirishilar ekan, o‘qituvchi quyidagi ilohiy ko‘rsatmani kengroq qilib sharhlashi kerak: “Ma‘siyat (gunoh)dan yig‘iling, xalq orasida ko‘ni (to‘g‘ri) hukm qiling, kuch qilmang, zino qilmang, qon to‘kmang, xiyonat qilmang”. Bu so‘zlar Rabg‘uziy asarining mazmun-mundarijasini aniqlab olishda kalit bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda adabiy ta‘limda o‘rganilishi mo‘ljallangan qissadan parchalar uchun o‘ziga xos kirish vazifasini o‘taydi.

Oldingi nashrlarda darslikda berilishiga ko‘ra dastlab “Qobil va Hobil” hikoyasi o‘rganiladi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar berilgan lug‘at yordamida asar matnini deyarli qiynalmasdan tushunadilar, mazmunini o‘zlashtira oladilar. Faqat gaplardan ma‘no chiqarishga berilib ketib, ular o‘rtasidagi

mazmuniy aloqadorlik hamda lavhalar orasidagi bog‘lanishlarni nazardan qochirishlari mumkin. Shuning uchun adabiyot muallimi matnni o‘zlashtirish jarayonini izchil ravishda nazorat qilib turishi kerak. Ya’ni o‘quvchilarga hikoya matnining har bir jumlasini navbatma-navbat o‘qitib, ma’nosini sharhlatishi, jumlar, fikrlararo bog‘lanishni anglab borishlarini ta’minlashi lozim. Bizningcha, tahlilda dastlab quyidagi gapga diqqat qaratish kerak bo‘ladi: “Odam o‘z shari’atincha Qobil birla tug‘g‘an qizni Hobilga berur bo‘ldi. Hobil birla tug‘g‘an qizni Qobilga berur bo‘ldi, ersa Qobil unamadi: “Maning bila tug‘g‘an qizni olurman”, tedi”. Ko‘rinadiki, Qobil otasiga isyon qildi. Otasi esa payg‘ambar, uning shari’ati Tangrining amri edi. Demak, u otasiga qarshi borish bilan Tangriga osiy bo‘ldi. Bu qiyomatgacha odamzodga bir ibrat edi. Buni o‘quvchiga uning o‘zi yoki tevaragidagi odamlar misolida tushuntirish lozim.

Adabiyot shunchaki dars emas, hayot maktabi ham bo‘lishi kerak. Kimdir safarda o‘ziga nomaqbul kishi bilan yo‘ldosh bo‘lib qoladi. Kimdir sinfda yoqmagan sinfdoshi bilan partadosh bo‘ladi. Yana kimdir bir umr suymagan odami bilan yalashga mahkum. Bu — taqdir va ayni paytda insonga berilgan bir sinov. Asosiysi, Yaratganning irodasini, xohishini kim qanday qarshi olishida. Qobil Yaratganning: “Menga itoat qiling” farmonini buzdi. Unga yana bir imkoniyat berildi: qurbonlik qilish. Shu o‘rinda darslikda berilmagan, lekin lug‘atlar qatorida qisqa eslatib o‘tilgan qo‘shimcha ma’lumotni batafsilroq sharhlash kerak: Oloh Qobilga ham, Hobilga ham qurbonlik qilishni buyurdi. Kimning qurbonligi qabul bo‘lsa, Iqlimoga uylanadi. Hobil chorva boqar edi. Podasidagi eng semiz, durkun, sog‘lom qo‘yni qurbonlik keltirdi. Qobil dehqonchilik bilan shug‘ullanardi. U yetishtirgan hosilidan o‘ziga ham ravo ko‘rmagan sifatsiz ulush keltirib qurbonlik uchun qo‘ydi. Tabiiyki, Hobilning qurbonligini Olloh qabul qildi. Shu o‘rinda tarbiyalanuvchilarga birovga ehson yordam uchun nimadir berilar ekan, inson o‘ziga ravo ko‘rgan va undan xam yaxshirog‘ini tanlashi kerakligi to‘g‘risidagi Islom dini ko‘rsatmasini eslatib o‘tish joiz.

Qurbonlik voqعاتidan keyin ham Qobil itoatsizlikda davom etdi. Shayton (Iblis) vasvasasiga uchdi. O‘z ukasini o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Akasining “Men seni o‘ltirurman” deb dag‘dag‘a qilishiga Hobilning «Men senga qatilmayman, Izi azza va jalladan

qo'rqarmen" degan javobi uning itoati, mustahkam imonidan darak berishiga o'quvchilar diqqati qaratiladi. Qobil Hobilni o'ldirdi va bu bilan navbatdagi ikki ilohiy amrga qarshi chiqdi: kuch qilmang, qon to'kmang. Va bu ikki gunoh yana boshqa bir hukmga osiy bo'lish bilan ulanib ketadi: "Qachon Odam hajga borur bo'ldi ersa, Hobilni ko'kka tobshurdi, man kelgincha saqlag'il teb, qabul qilmadi. Yerga arza qildi, qabul qilmadi, tog'lar qabul qilmadi. Qobil qabul qildi. Omonatga xiyonat qildi, o'tturdi. Qobil Hobilni o'tturdi ersa, tun, kun yer tebrandi".

Shu o'rinda asarda muallif o'z fikrlarini dalillash uchun "Qur'on oyatlari, hadislarga murojaat qilib, ularni to'liq keltirganligini aytib o'tish joiz bo'ladi. Yuqoridagi voqealar bayonidan keyin adib quyidagi oyatni keltirganiga diqqat qaratilib, uning mazmuni izohlanishi kerak: "Biz Bani Isroilga shunday hukmni bitib qo'ydik: Kimki odam o'ldirmagan yoki biror fasod ish qilmagan odamni o'ldirsa, u go'yo (dunyodagi) barcha odamlarni o'ldirganday bo'lur va kimiki bir jonni o'limdan saqlab qolsa, u go'yo (dunyodagi) barcha odamlarni o'limdan saqlab qolgan bo'lur". Bu oyat o'z maqsadlari yo'lida insonlar qonini to'kayotgan siyosiy kuchlar, aqidaparast terrorchilarning xatti-harakati g'ayriinsoniy, g'ayriislomiy ekanligini ta'kidlash uchun qo'l keladi.

Matnni o'rganish davomida bir-ikki bor gunoh qilgan odam boshqa jinoyatlarga oson berilishi, iblis vasvasasiga uchib, asta-sekin inson qiyofasini yo'qota borishi quyidagi jumlar orqali o'smirlarga isbot etiladi: "Iblis kelib Qobilg'a so'zladi: "Mavlo taolo ne uchun saning qurboningni qabul qilmadi? An'ng uchunkim, san butg'a tobunmazsen, xamr ichmazsen, un o'tkurmazsen. Qobil bu qamug'ni ishlab erdi. Anda kezin Qobil xamr ichdi, butga tobundi, unlar o'tkuru boshladi".

Gunoh va jinoyatlarning xavfi shundaki, ular osiy va jinoyatchining o'zida qolib ketmaydi. Jamiyatdagi bir kishining ma'naviy illati va uning kasofati juda ko'p odamlarni tanazzulga boshlashi mumkin. Shu fikrning isbotini o'quvchilar matndan topishlari kerak: "Odam bildi ersa Qobilni ul ishlardin yig'moq uchun qirq ming er izdi. Kelib Qobilni ko'rdilar, ul unlar eshittilar. Qamug'i murtad bo'ldi. Qobil birla andag'uq qoldilar. Bu kun qamug' ma'siyatlar qiyomatga tag'i Qobi din qoldi". Matn so'ngidan Qobil kabi gunohkor va jinoyatchilarni bu dunyoda ham, u dunyoda ham qanchalik azobli jazo kutishiga e'tibor qaratish kerak.

O'qituvchi matn tahlilini quyidagi shakllardan birida amalga oshirishi mumkin: a) matn o'qish davomida bir yo'la sharhlab, tahlil qilish; b) matn o'qilgach, har bir lavha yoki fikrga navbatma-navbat sharh. berish; v) asar g'oyasini ifodalaydigan fikrlar (menga itoat qiling, kuch ishlatmang, qon to'kmang, xamr ichmang...) mazmunini beradigan jummalarni topish; g) darslikdagi savol va topshiriqlar bilan ishlash. Qaysi bir shakl tanlansa ham, darslikda berilgan quyidagi topshiriqqa tarbiyalanuvchilar diqqati jalb etilishi kerak: "Mamlakatimiz hamda dunyoda ro'y berayotgan voqealardan kelib chiqib, bugungi kun Qobillari to'g'risidagi qarashlaringizni bildiring". Toki, o'quvchilar ekstremizm bo'ladimi, shovinizmi, genotsidmi yoki boshqa ko'rinishdagi jinoyatlarmi, bugungi kun Qobillarining qiyofasini bilsinlar, basharalarini tanisinlar.

Oldingi yillardagi 10-sinf darsligida "Namrudning ko'kka og'gan so'zlari" matni berilgan³⁷. Aynan shu parcha akademik litseylarning birinchi bosqich talabalari darsligiga ham kiritilgan³⁸. Berilgan matn ancha qisqa. Shuning uchun asarning o'zidan uning to'liq matni bilan ishlash ma'qul. O'qituvchi, avvalo, Namrud haqida tushuncha berishi kerak. Yo'qsa, o'quvchilar matnning mazmunini to'la idrok etolmaydilar, natijada mohiyat kutilgandek anglashilmaydi. Namrud - qadimga Misrda hukmdorlik qilgan fir'avnlardan biri. U boshqa fir'avnlardan kabi o'zini xudo deb e'lon qilgan va odamlarni o'ziga sajda qilishga buyurgan. Ibrohim alayhissalom uni va boshqa odamlarni imonga, Ollohga bo'ysunishga da'vat qilgani uchun uni olovga tashlab o'ldirmoqchi bo'ladilar. Namrud odamlarga to'rt oy o'tin yig'diradi, uni yoqadilar. Payg'ambarni manjanaqqa solib, olovga otadilar. Olloh amri bilan u salqinlik va omonlik kasb etadi. Olov ichida hatto Ibrohim alayhissalom atrofida gullar ochiladi. Bu mo'jizadan dong qolgan Namrudning ko'ngliga musulmon bo'lish — Ollohnin tan olish fikri keladi. Atrofidagilar bilan kengashadi. A'yonlari agar Namrud imon keltirsa, Ibrohimning hurmati oshadi, bizni hech kim izzat qilmay qo'yadi, deb o'ylab, qarshilik bildirishadi: "Necha yil tangrilik qilding, endi qul bo'lasanmi? Bizni ham qul qilasanmi?" Namrud ularning gapiga kirib, imondan bebahra qoladi.

³⁷ Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. Adabiyot 10-sinf darsligi. 2004. 141-bet.

³⁸ To'xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot. Akademik litseylar uchun. – T.: Cho'lpon, 2007. 121-bet.

So'ng aksincha ish qilib, Ibrohimning topingani Tangri bo'lsa, men ham Tangriman. U Tangri bilan jang qilay, deb osmonga ko'tarilmoqchi bo'ladi. Darslikdagi matn Namrud alayhi la'naning shu maqsadda ko'kka ko'tarilgani to'g'risidadir. Demak, matnning darslikda yo'q shu qismini o'qituvchi so'zlab berishi lozim.

Avvalo, matn mazmunini o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganliklari tekshirib ko'rilishi kerak. Ularga Namrudning ko'kka chiqishdan maqsadi oydinlashgach, tahlilga o'tiladi. Fir'avnning qay taxlit osmonga ko'tarilgan igiga diqqat qilinadi: "Qora qushlar bolalarin ektuladilar. Ulg'ardi esa kezin bir sanduq yo'ndurdi; ikki qapug'luq — biri ustun, biri ostin. Sekiz azoqlig' to'rti ustun, to'rti ostin. Ustungi azoqlaring'a qora qushlarni bog'latdi. O'zi yoriqi, yashiqi birla o'q olib, bir nog'i birla sanduqqa kirdi. Qushlar ustun etni ko'rdilar ersa, ani olg'ali uchtilar, sanduqni havog'a ko'tardilar». Ushbu tadbirdan Namrudning uddaburonligi, aql-zakovatini ko'rinib turibdi Shundan kelib chiqib, o'quvchilar oldiga shunday savol qo'yilishi mumkin: «Aql va tadbirda, qudrat va davlatda boshqalardan ustun bo'lgan hukmdorning Oллоh bilan teng bo'lolmasligini tushunishiga nima xalaqit berdi?» O'quvchilarning diqqatini shu savolga qaratish va ulardan javob olish asnosida bahs-munozaraga tortish kerak.

O'qituvchi o'quvchilarining mulohazalarini tinglashi, har biriga e'tibor qaratishi, har bir fikrga hurmat bilan qarashi shart, garchi javob u qadar asosli, mantiqli bo'lmasa ham, o'quvchi darsda uning fikriga, mulohazalariga e'tibor qilinayotganini, bu orqali o'ziga hurmat ko'rsatilayotganini sezishi kerak. Javoblarni umumlashtirib, o'qituvchi o'z qarashini bildirishi mumkin: Namrud har qancha aqlli, tadbirkor bo'lmasin, undagi kibr jaholatga boshladi. Jaholat esa aql ko'zini to'sib qo'ydi va shundan u haqiqatni ko'ra olmadi. Demak, qadimdan to bugungi kungacha insonlarga, xalqlarga ozor, zulm yetkazgan kuchlar — siyosiy, diniy xarakterda yoki boshqa, o'zlarining jaholati tufayli yovuzlikka qo'l uradilar.

Matnda shunday lavha bor: "Aymishlar, Namrudning qavminda yuz ming er o'vrulub Ibrohim yalavochna ko'ngulluk erdilar. Namrud kelib ko'k tengrisin o'lturdum teb qonlug' o'qni ko'rguzsa, ul so'zni ko'niga tutub yana kofir bo'ldilar". Shu lavhaga quyidagicha savol qo'yish maqsadga muvofiq: "Ibrohim alayhissalomga ko'ngillik bo'lgan yuz ming kishining yolg'on so'zga ishonib, kufr yo'lga qaytishlarini qanday

izohlaysiz?” Tahlilda, bizningcha, 9-sinf darsligida berilgan hikoyadagi Qobilning kasofati sabab gunoh ishiarga, fasod amallarga ketib qolgan qirq ming kishi holatini bu lavhadagi yuz ming kishi gumrohliligiga qiyoslash mumkin. Bu o‘rinda ham jamiyatdagi ma’lum bir kishilardagi ma’naviy illat yuzlab, minglab odamlarning baxtsizligiga sabab bo‘lishi yana bir bor ta’kidlanmoqda. Demak, har bir inson tevarak atrofdagi illatlarga, ma’naviy nuqsonlarga befarq bo‘lmasligi lozim. Yo‘qsa, ularning kasofati ko‘pchilikka asar qiladi.

Keyingi tahlilga tortiladigan lavha Olohdan taoloning dengiz yanglig‘ temir sovut kiygan Namrud qo‘shiniga qarshi chivin lashkarini yuborganligi bo‘lishi kerak. Bir qaraganda, chivin inson oldida juda kichik va o‘jiz. Bir odam minglab chivinlarni yo‘q qilishi mumkin. Lekin nazarga arzimaydigan shu hasharot dunyodagi eng qudratli qo‘shinni bir zumda tumtaraqay qilib yubordi. Olohdan xohlasa, o‘zining eng zaif maxluqini eng qudratli ko‘ringan boshqa maxluq ustidan g‘olib qilib qo‘yadi. Shuning uchun kishi o‘zining kuchi, boyligi, mansabiga ko‘p bino qo‘ymasligi kerak. Chunki insondagi barcha narsa omonatdir, ya’ni o‘ziniki emas, Yaratganga tegishlidir. U esa xohlagan paytda olib qo‘yishi mumkin. Adabiyot muallimi o‘quvchilariga mana shu haqiqatni anglatib qo‘yishi kerak.

Namrudning qazosini ham shu nuqtayi nazardan asoslash mumkin. O‘zini xudo deb e’lon qilingan kimsani ushoq bir chivin, chivinlar ichida eng zaifi, oqsog‘i jazolaydi. Jazo ham da’voga yarasha bo‘ladi: “Mavlo taolo bir zaif singar azoqli, singar qanitlig‘, singar ko‘zruk axsoq chibinga ilhom berdi. Ul teshukdin kirib keldi. Namrudning yang‘oqing‘a qo‘ndi. Yang‘oqindin so‘rdi og‘zi tegrasidin uchar bo‘lub burnung‘a kirdi, minisinga tegdi. Minisin yeyu boshladi. Kirq tunkun yedi. Qa’bul Ahror rivoyatincha, mavlo taolo Namrud la’inga to‘rt yuz yil mulk berdi. Anda kezin burning‘a kirdi yana to‘rt yuz yil anda turdi. Kim qoting‘a kirsan, to‘q qilib ani urdurur erdi. Aning birla tinmasa, yumruq bila urdurur erdi. Engsalayu boshladilar”.

Tahlilga yakun yasash uchun shunday savol-topshiriq qo‘ysa bo‘ladi: “Namrudning qismatidan kelib chiqib, zolimlarni oqibati qanday bo‘lishligini mushohada qiling. Tarixdan olgan bilimlaringiz asosida yaqin va uzoq o‘tmishda

yashagan Namrud kabi zolimlar nomini ayta olasizmi?” Bu topshiriq atrofida kichik suhbat uyushtirish mumkin bo‘ladi. Bu orqali o‘qituvchi badiiy matnni hayotga bog‘laydi hamda fanlararo integratsiyaga erishadi.

9-sinf darsligidagi “Rasul alayhis-salom vafoti so‘zlari” matni tahlili ham o‘quvchilar badiiy-estetik, ma’naviy, mafkuraviy tarbiyasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bu darsga o‘qituvchi alohida tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Chunki mazkur mashg‘ulotda insoniyatning yaralishiga sabab bo‘lgan zot, olamla rahmat bo‘lib kelgan, bashariyatga qiyomatgacha namuna, ibrat komillik timsoli bo‘lmish Muhammad atayhissalom siymosi talqin qilinadi. Matnni o‘rganishda undagi lavhalar, payg‘ambar (a.s) ta’rif, tavsiflari, ibratli pand-nasihatlar alohida ajratib olinib tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, payg‘ambar (a.s.)ning sahobalarga qarata “Ey mo‘minlar, kim ersaning manim uza hech da’vosi va xusumati bormu?” deya uch bor so‘roviga sahoba Ukoshaning da’vosi bilan bog‘liq lavha tahlil qilinadi. Lavhadagi har bir jumla, dialog o‘qib sharhlanishi kerak. Suhbat, munozara tarzida tahlil qilingach, undan kelib chiqadigan quyidagi xulosalar bilan o‘quvchilar ibratlanishlari kerak:

1. Insonning boshqa bir odam oldida na moddiy, na ma’naviy va na jismoniy haqi qolmasligi kerak. Har qanday holatda da’vogarning (agar u haq bo‘lsa), haqini ado etishi adolatdan bo‘ladi.

2. Muhammad (a.s.) payg‘ambar ham hukmdor edi. Saunday bo‘lsa-da, da’voni qondirishdan bo‘yin tovlamadi. Demak, payg‘ambar o‘z ummati, hukmdor o‘z fuqarosining qilgan da’vosidan forig‘ bo‘lolmas ekan, qolgan insonlar bir-birlarini rozi qilib yashashlari shart. Bu tenglik ramzi edi.

3. Da’vo qilinguvchining o‘zi turganda (agar da’vogar rozi bo‘lmasa) boshqalarning u uchun omonatni ado etishlari mumkin bo‘lmas ekan. Bu hukmdagi ijroning haqiqat tamoyiliga asoslanganligidir.

Bizningcha, bu lavhadan so‘ng quyidagi nasihat sharhlanishi kerak: “Aydi: “Ey, yoronlarim, aziz do‘stlarim, ul kelgan Malak ul-mavt — qarindoshim Azroil erdi. O‘sh qarindoshim Jabroilma hozir turur, manga so‘zlayur: ummatingga salom tegurgil, bo‘g‘uz uchun imonni ilikdin chiqarmasunlar teb. Shaytonni, nafsu havoni

izarmasunlar, shak va sharika insunlar. Ko'ni imonga berk yapushsunlar, o'lumni unutmashunlar. Hiqd va hasaddin iroq tursunlar, shari'at ahkomini berk tutsunlar. Dunyoga ko'ngul bog'lamasunlar, Tengri azza va jalla yorliqin og'irlasunlar. O'g'il-qizqa osh, etmak otasi bo'lmasunlar — dini islom otasi bo'lsunlar. Yovuz esh qo'ldoshdin yig'ilsunlar. Besh namozni azoqin tutsunlar. Qul, kungni ezgu tutsunlar, darvishlarga rahm qilsunlar. O'gsuzlarga shafqat qilsunlar. qazg'ulug' munglug'larqa bo'lushsunlar. O'lumga anuq tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar teyu turur", tedi".

Parchadagi har bir ibratli jumla suhbat va munozara asnosida izohlanishi kerak:

— "... bo'g'uz uchun imonni ilikdin chiqarmasunlar", ya'ni nafsga berilib, Haqni, adolatni, insoniylikni unutmashinlar.

— "Shaytonni, nafsu havoni izarmasunlar", ya'ni shaytoniy o'y-xayollar, istaklarning, havaslarning domiga tushib, tubanlashmasinlar.

— "shak va sharika insunlar" ya'ni, jamiyatda odamlar o'asiga nifoq soluvchi, dinda tafriqaga sabab bo'luvchi turli fasod mafkuralardan yiroq bo'lsinlar.

— "Ko'ni imonga berk yapushsunlar", ya'ni toza islomiy ta'limotga ergashib, iymonning to'g'ri yo'lini tanlasinlar.

— "O'lumni unutmashinlar", ya'ni oxiratni yodda tutsinlar.

— "Hiqd va hasaddin iroq tursunlar", ya'ni gina va hasaddan yiroq turib, o'zaro kechirimlik hamda havas bilan yashashni shior etsinlar.

— "shari'at ahkomini berk tutsunlar", ya'ni din buyurgan ezgu amallarni og'ishmay bajarsinlar.

— "Dunyoga ko'ngul bog'lamasunlar", ya'ni nafsga berilib, ma'naviyatni unutmashinlar.

— "Tengri azza va jalla yorliqin og'irlasunlar", ya'ni Olloh taoloning adolat, tenglik, poklik, mehr va haqiqatdan iborat bo'lgan chaqirig'iga jon-dili bilan kirishsinlar.

— "O'g'il-qizqa osh, etmak otasi bo'lmasunlar — dini islom otasi bo'lsunlar", ya'ni farzandlarni faqat moddiy ta'minlash bilan kifoyalanmay, o'g'il-qizlarni ikki dunyo saodatiga eltuvchi ilmlar bilan voyaga yetkazsinlar.

— "Yovuz esh qo'ldoshdin yig'ilsunlar" — ma'naviy tuban johil odamlarga yo'ldosh bo'lishdan qochsinlar.

—“ Besh namozni azoqin tutsunlar” — Besh vaqt namozni odat qilsinlar.

—“Qul, kungni ezgu tutsunlar, darvishlarga rahm qilsunlar. O‘gsuzlarga shafqat qilsunlar, qazg‘ulug‘ munglug‘larg‘a bo‘lushsunlar” — mehrli, muruvvatli, saxiy, shafqatli bo‘lsinlarki, bu ularning ma‘rifatidan darakdir.

—“O‘lumga anuq tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar” - o‘limni unutmagan odam ezgu ishlarni qo‘ymaydi, o‘zidan yaxshi nom qoldirishga intiladi.

Shu tariqa o‘qituvchi o‘quvchilar bilan matnni tahlillashi kerak. Agar o‘qituvchi matnlarni kerakli qismlarga bo‘lishga qiynalsa, darslikdagi savol va topshiriqlar bilan ishlansa ham bu vazifani ado etgan bo‘ladi. Chunki ularda matndagi tahlil qilinishi kerak bo‘lgan o‘rinlarga alohida urg‘u berilgan. Ayniqsa, 12-topshiriqqa alohida diqqat qilmoq kerak: “Ushbu parcha orqali pokiza, insoniylik dini bo‘lgan Islom mafkurasi haqida mulohaza yuriting. Bu din niqobi ostida buzg‘unchilik, zo‘ravonlik faoliyatini olib borayotgan kimsalarni Islomga mansub deyish mumkinmi? Fikringizni matndan kelib chiqib asoslang”. Bu topshiriqni bajarar ekanlar, o‘quvchilar u orqali mamlakatdagi, dunyodagi ijtimoiy-siyosiy voqkelikka munosabat bildiradilar va bu orqali dars materiallarining hayot bilan bog‘liqligi ta‘minlanadi.

O‘quvchilarga matndagi Muhammad alayhissalom vasf qilingan parchalardan birini uyda yod olish vazifasi yuklanadi. Shuningdek, darslikdagi mavzu buyicha oxirgi topshiriq bo‘lmish “Muhammad alayhissalom — inson komilligining timsoli” mavzusida uy inshosini yozish bo‘yicha ko‘rsatma va topshiriqlarni berish kerak bo‘ladi.

III.2. Dars ishlanmasi

Mavzu	Nosiriddin Burxoniddin Rabg‘uziy hayoti va ijodi. “Rasul alayhissalom vafoti so‘zlari” hikoyasi tahlili.
-------	---

1.1. Ta‘lim berish texnologiyasining modeli

Mashg‘ulot vaqti – 2 soat	O‘quvchilar soni – 30 ta
Mashg‘ulot shakli	Aralash dars.
Dars rejasi	1. Nosiriddin Rabg‘uziyning hayoti haqida. 2. “Qisasi Rabg‘uziy” asari xususida. 3. “Rasul alayhissalom vafoti so‘zlari” hikoyasi tahlili.
Maqsad, vazifalar	Ta‘limiy: o‘quvchilarning mavzuga oid ko‘nikmalarini hosil qilish, hikoyani tahlilga tortish va ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirish, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash. Tarbiyaviy: insonning eng yaxshi fazilatlar sohibi bo‘lib yetishishida, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, o‘z-o‘zini tarbiyalashida adabiyotning rolini anglash, hikoyadan anglashilgan mazmuni chuqur idrok etishga o‘rgatish. Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning mumtoz nasriy asarlarning mazmun-mohiyati, ularda tashiladigan asosiy g‘oya haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.
Quyidagi adabiyotlar ro‘yxati	1. Karimov I. A. Adabiyotga e‘tibor – ma‘naviyatga, kelajakka e‘tibor. –T.: O‘zbekiston, 2009. 2. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshibekov J. Adabiyot (9-sinf uchun darslik).–T.: Yangiyo‘l poligraph servis, 2014. 3. Nosiriddin Burxoniddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. 1-2-kitoblar. –T.: Yozuvchi, 1990, 1991.
Pedagogik vazifalar: 1. Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodi haqida ma‘lumot berish; 2. Lug‘atlar bilan ishlash va shu asnoda matnni o‘zlashtirish, ma‘noni sharhlashga erishish; 3. Savollar ustida	O‘quv faoliyati natijalari: • Rabg‘uziyning hayoti va ijodi “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi ma‘lumotlar asosida o‘rganiladi; • Darslikda berilgan “Rasul alayhissalom vafoti so‘zlari” hikoyasi tahlilga tortiladi. • Matndagi tushunarsiz so‘zlar izohlanadi; • “Keling, sharhlaymiz!” texnologiyasi orqali o‘quvchilar faollashtiriladi, hikoyadagi muallif aytmoqchi bo‘lgan g‘oya sharhlab beriladi, fikrlar umumlashtiriladi va bilimlar mustahkamlanadi.

ishlash. Bunda faktologik savollardan konseptual savollarga ko'tarilish. 4. Shaxslararo muloqotni ta'minlash.	
Ta'lim berish usullari	Tahlil, kichik guruhlarda ishlash, savol-javob, bahsmunozara, "Aqliy hujum", "Keling, sharhlaymiz!", "Tarmoqlar", "Bumerang".
Ta'lim berish shakllari	Jamoa, individual, kichik guruhlar bilan ishlash.
Ta'lim berish vositalari	Darslik, adibning "Qisasi Rabg'uziy" asari, proyektor, kompyuter.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruh bilan ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob, tahlil, matnni sharhlay olish.

1.2. Darsning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi, taqdimot tayyorlaydi.	
1. Tashkiliy qism	<p>1.1. Salomlashadi, o'quvchilarning davomati aniqlaydi.</p> <p>1.2. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshiradi.</p> <p>1.3. Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi.</p> <p>1.4. Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi.</p> <p>1.5. O'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash texnikasi qoidalari bilan tanishtiradi.</p>	<p>Salomlashadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>Savollar bilan murojaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar.</p> <p>O'z fikrlarini bilidirib, faol ishtirok etadilar.</p>
2. Asosiy bosqich	1.1. O'tilgan mavzu "Aqliy hujum"	Savollarga javob

	<p>metodi hamda savol-javob usulidan foydalangan holda mustahkamlanadi.</p> <p>1.2. Yangi mavzu bo'yicha mashg'ulot rejasi va asosiy tushunchalari bilan tamishtiradi.</p> <p>1.3. Slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotni tushuntirib beradi.</p> <p>1.4. Asardan olingan parchani lug'atlardan foydalanib tahlilga o'tirish, sharhlab o'rganish bo'yicha o'quvchilarga yo'nalish beradi.</p>	<p>beradilar. Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, muhim joylarini o'z daftarlariga qayd etadilar. Parchadagi notanish so'zlarni lug'atdan foydalanib ma'nosini aniqlaydilar, tahlil etadilar.</p>
3. Yakuniy bosqich	<p>3.1. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.</p> <p>3.2. Mavzu bo'yicha o'quvchi arda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.3. Uyga topshiriq beradi.</p> <p>3.4. "Muhammad alayhissalom – inson komilligining timsoli" mavzusida insho yozib kelish topshiriladi.</p>	<p>Savollar beradilar. Topshiriqni yozib oladilar.</p>

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi, “Keling sharhlaymiz!” texnologiyasidan foydalangan holda sinf o'quvchilari beshta guruhga ajratiladi. “Bumerang” texnologiyasini ham qo'llash asosida yangi mavzu o'zlashtiriladi. Bunda matn beshta qismga ajratilib, guruhlarga bittadan qism (matn parchasi) taqsimlab beriladi.

1-guruhga matn

Xabarda kelur, kunlarda bir kun Rasul alayhissalom tong namozini o'tab minbarg'a og'ib sahobalarqa va'z va nasihat qildi. Anda kezin aydi: “Ey mo'minlar, kim ersaning manim uza hech da'vosi va xusumati bormu?” Kim ersa javob aymadi. Ikinch so'rdi, kim ersa javob aymadi. Uchunchida Ukosha otlig' sahoba qo'pti, aydi: “Yo Rasululloh, manim bir da'vom bor”. “Aytg'il”, tedi. Aydi: “Bir kun siz safardin kelurda siz tevaga mimub, teva urur

bo‘lub, ul qish qamchi birla uchamqa urdingiz, yavloq og‘ridi. Yo Rasulalloh, uch qurla aymasangiz manma aymas erdim”, tedi. Rasul alayhissalom hujraga kishi izti, qamchi tilagali keldi. Qamchi tiladi. Xotunlar: “Na bo‘ldi, na yerga borur?” teb qazg‘urdilar. Aydi: “Safarg‘a bormas, yerga borur?” teb qazg‘urdilar. Aydi: “Safarg‘a bormas, ammo Ukosha qisos tilayur”, tedi. Xotunlar yig‘lashtilar. Qamchini kelturdi. Rasul ilkinga oldi. Ukoshag‘a berdi. “Man netak urdum ersa san taqi andag‘ urg‘il”, tedi. Ukosha qamchi olib andag‘ tedi: “Bu qasos rost kelmas. Ul kun siz teva munub borur erdingiz, man yerda andog‘ erdim. Ustundin ingan berga birla bu rost kelurmu?” Rasul alayhissalom minbardin indi, Ukoshani minbarg‘a og‘durdi. “Urg‘il”, tedi. Sahobalar yig‘lashtilar. Ukosha aydi: “Yo Rasululloh, ul kun maning engim yoling erdi, yavloq og‘ridi. To‘nungni chiqargil, qisos rost kelsun”, tedi. Yig‘i, cho‘g‘i sahobalardin zohir bo‘ldi. Rasul alayhissalom to‘nun chiqardi, egnini yoling qildi. Sahobalar faryod qo‘pordilar, *Abu Bakr aydi*: “Ey Ukosha, ul qamchini maning yuzumga, ko‘zumga urg‘il. Rasul alayhissalomning qutlug‘ taninga tegmasun”. Umar va Usmon va Ali raziyallohu anhum ajma’in mundag‘-o‘q yig‘lashib: “Meni urg‘il”, tedilar. Rasul alayhissalom aydi: “Ey yoronlarim, siz kendu shafqat qilursiz. Ammo qisos manga yarig‘u bo‘lsa sizlardin ravo bo‘lmag‘ay”, tedi. Anda kezin Ukosha egnini yoling ko‘rdi ersa, aydi: “Yo Rasululloh, manim maqsudim qisos ermas erdi, egningdagi muhri nubuvvatni ko‘rsam. Emdi dastur bergil, ul muhr uza qubla berayin, sandin afv qildim”, tedi. Rasul alayhissalom dastur berdi. Ukosha qubla qildi. Sahobalar qamug‘ sevunchluk bo‘ldilar, Ukoshaga ofarin o‘qidilar.

Lug‘at

Qo‘pti - qo‘zg‘aldi, o‘rnidan turdi. Teva - tuya. Qish qamchi - egilgan qamchi. Ucha - orqa, kurak. Yavloq - yomon. Izti - yubordi. Og‘urmoq — chiqarmoq. Yoling — yalang‘och. Cho‘g‘i — faryod. Kendu - o‘zi(ngiz)cha. Yarig‘u—atalgan. Ber - o‘pmoq.

2-guruhga matn

Aymishlar, qach kunda kezin vido' hajji bo'ldi. Tevaga minub tururda Rasul alayhissalomda vahy og'rig'ining asari bilgurdi. Muhojir va ansor tegrasinda turub vahy tinglayur erdilar. Rasul alayhissalom bu oyatni o'qiyur erdi: Bugun diningizni sizlarga mukammal qilib berdim va tamom qilib berdim sizlarga ne'matimni va to'g'ri yo'l ko'rsatadigan din bo'lsin uchun islomni sizga ravo ko'rdim.

Ba'zi sahobalar muni eshitib sevunur erdilar. Siddiq aydi: "Sizga sevungu kun turur. Man bildugumni siz bilsa erdin-giz, sevunmagan erdingiz. Bilmish bo'lung, Mustafoni bizing oramizdin chiqargudek tururlar. Bizni aning firoqi birla muftalo qilg'utek tururlar". Abdulloh ibn Mas'ud aytur: Hijratning so'nggi yili erdikim, Rasul alayhissalom og'rig' bo'ldi. Jamoat namozig'a boru bilmadi. Abu Bakrga ijozat berdi: "Borg'il, sahobalarg'a imomatlig' qilg'il", teb. Bilol raziyalloha anhu azon qildi, sahobalar yig'lashti. Rasul alayhissalomning og'rig'i anchada andoq bo'ldi. Fazl ibn Abbosqa aydi: "Mani masjidga elting". Bir qo'lini Fazl tutti, bir qo'lini Ali tutti. Masjidga eldilar. Siddiq raziyallohu anhu Rasulni qo'rdi, yong'uga o'g'radi. Rasul aydi: "Chiqmag'il, imomatlig' qilg'il".

Rasul alayhissalom Abu Bakrga iqtido qildi, namoz o'tadi, hujraqa yondi. Kun kelu og'rig'i ziyoda bo'ldi. Qizil mengizi sarg'ardi, chechaktek englari soldi. Jabroil xoja mengizlik bo'lub ustun turur. Azroil bir badaviy arabtek bo'lub kirib keldi. Tizin cho'kub o'lturdi. Ozin-ozin Rasulqa yaqinroq keldi, quloqinga so'zladi. Yana eva chiqti. Rasul alayhissalom holi aynadi. Telim oh qildi, yig'ladi. Sahobalar qamug' yig'lashtilar. Aydilar: "Yo Rasululloh, bu arab kim erdi, sizga ne tedi? Holingiz aznadi". Aydi: "Ey yoro ularim, aziz do'stlarim, ul kelgan Malak ul-mavt — qarindoshim Azroil erdi. O'sh qarindoshim Jabroilma hozir turur, manga so'zlayur: ummatingga salom tegurgil, bo'g'uz uchun imonni ilikdin chiqarmasunlar teb. Shaytonni, nafs-u havoni izarmasunlar, shak va sharikka insunlar. Ko'ni imong'a berk yapushsunlar, o'lumni unutmasunlar. Hiqd va hasaddin iroq tursunlar, shari'at ahkomini berk tutsunlar Dunyoga ko'ngul bog'lamasunlar, Tengri azza va jalla yorliqin og'irlasunlar. O'g'il-qizqa osh, etmak otasi bo'lmasunlar — dini islom otasi bo'lusunlar. Yovuz esh qo'ldoshdin yig'ilsunlar. Besh namozni azoqin tutsunlar. Qul, kungni ezgu tutsunlar,

darvishlarga rahm qilsunlar. O'gsuzlarga shafqat qilsunlar, qazg'ulug' munglug'larqa bo'lushsunlar. O'lumga anuq tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar teyu turur", tedi. Sahobalar qattig' yig'lashtilar.

Lug'at

O'g'radi-shaylandi, yo'l oldi. Iqtido qilmoq-ergashib namoz o'qimoq. Yonmoq-ortga qaytmoq. Tizin cho'kib-tizzalab. Ozin-ozin - sekin-sekin. O'sh - shu. Ilik - qo'l. Jumlaning ma'nosi: Bo'g'iz (nafs-havo) uchun imonini qo'ldan boy bermasinlar. Izarmoq - o'z holiga qo'ymoq. Shak va sharika insunlar - shubha-shirkdan qaytsinlar. Ko'ni imonga berk yopushsinlar - to'g'ri(pok) imonga mahkam yopishsinlar. Hiqd — gina, nafrat. Qul, kungni ezgu tutsinlar - qul va xizmatkor (joriya)larga yaxshi muomalada bo'lsinlar. O'gsuz - yetim. Qazg'ulug' - qayg'uga botgan. Anuq - tayyor

3-guruhga matn

Rasul alayhissalom aydi: "Ey sahobalar man sizga yalavoch erdim". Aydilar: "Ey olamlug'larning chirog'i, san bizga ota onadin mushfiqroq erding. Xaloyiqni shari'atqa da'vat qilding, ummatqa sunnat va farz o'gratting. O'gsuzlarga otaliq qilding, za'iflarqa ektulading. Muhojir va ansorlarqa tarbiat qilding. Odamiy va parini hazratqa undading. Yo'lsuzlarqa yo'l ko'rguzdung, bo'ynag'ularni ko'ndurdung. Ko'nilar uza shari'at gavharin isor qilding, shirk va fitna tug'ini yerga chalding. Olamni ilm bila yorutding, Shaytonni adl birla surdung. Mo'jizalar ko'rguzdung: oyni ernak birla yording; so'klunmish o'g'loqni tarkida so'zlatting; ilkingdagilarni tilga "elturding; qurug' yig'ochni yoshartting; yemishsiz yig'ochni duo birla ne'matlig' qilding; ushoq toshni tasbihga kelturdung; tamug'g'a boru turg'anlarni yondurub ujmoh yo'linga boshlading", teyu ingrayu boshladilar. Uch kunda kezin Malak ul-mavt yana keldi. Rasul alayhissalom Oyishag'a tizin yastanub yotur erdi. Fotima, Hasan va Husayn qatinda o'lturur erdilar. Qabiz al-arvoh qapug'qa keldi, hurmat birla aydi: Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey payg'ambarlik va elchilik uyining ahllari, Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey odamlar muhtoj bo'ladigan va ulug'lik uyining ahllari, Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey insoniylik va saxovat uyining ahllari, Ollohning salomi bo'lsin sizlarga,

ey azizlik va sayyidlik uyining ahllari, Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey marhamat va baxt saodat uyining ahllari. Dastur bormu, kirsamiz?" Oyisha raziyallohu anho aydi: "Bu a'robiiyqa ayding, kirgu vaqt ermas. Rasul alayhissalom emganib turur". Rasul alayhissalom Azroil unin tanudi, aydi: "Ey Oyisha, so'z birla yonar kishi ermas, ish biturmadin ketmas, A'robiiy ermas, Azroil turur, kirsur", tedi. Kirib salom qildi. Rasul alayhissalom so'rdi: "Na ishga kelding?" Azroil aydi: "Hazratdin yorlig' andog' tururkim, Muhammadga borg'il, dastur bersa jonin olg'il. Dastur bermasa ravon yong'il teb. Emdi dastur bersang jon olurman, bermasang yonarman", tedi. Rasul alayhissalom aydi: "Yo Azroil, jon bu kun olmasang kech qolsa oqibat olurmusan?" "Olurman", tedi. "Andog' ersa ishga turg'il", tedi. Azroil jon olmoqq'a o'g'radi. Rasul alayhissalom sog'din so'lg'a, so'ldin sog'g'a to'lg'anub boshladi. Muborak a'zosi kuchsiz bo'ldi. Ul qutlug' ko'ngli mungluq bo'ldi. Mengizi sarg'ardi, shakkartek tili so'zlamas bo'ldi. Ko'rkluk yangoqlaridin qatra-qatra yosh toma boshladi. Aqiru-aqiru tilin tebratib: "Iziyo, mani dunyodin ko'nilik uza chiqarg'il, to'proqqa ko'nilik uza kigurgil, qiyomat kuni tuproqdin kunilik uza qo'porg'il", teyur erdi.

Lug'at

Ektulamoq - boqmoq. Hazrat - Olloh. Bo'ynag'u - mag'rur, nomdor. Isor - in'om, Yerga chalmoq - yiqitmoq. Ernak - barmoq. So'klanmish o'g'loqni tarkida so'zlatting - qovurilgan baliqni darrov tilga keltirding. Yemishsiz yig'och - mevasiz daraxt. Tamug' - do'zax. Malak ul-mavt - Azroil. Dastur - ruxsat. Emganmoq - qiynalmoq. Yonar - qaytar. Sog'din so'lga - o'ngdan chapga. Aqiru-aqiru - past ovozda.

4-guruhga matn

Qamug'lari tegrasida yig'lashurlar. Hasan va Husayn raziyallohu anhumo yoling bosh bo'lub ingrashurlar. Fotima raziyallohu anho yig'lab aytur: "Ey yumshoq to'shakda yotmag'an, ey tovar to'n kizmagan, ey arpa etmagin to'q yemagan", teb yig'layur erdi. Ev mungushidin un keldi: Voh, qandoq chidab bo'lur Rasulullohning firoqiga. Rasul alayhissalom tekma bir soatda ilkin suvqa tegurub ko'ksunga qo'zur. "Iziyo, jon bermakni Muhammadga oson qilu bergil", teyur erdi. Qachon jon

ko'ksinga yetti ersa aydi: "Ey Azroil, bir soat tavaqquf qilg'il, jon bermakni oson qilu bergil", teyur erdi. "Ey Azroil, bu kundin qiyomatga tegi maning ummatlarimga jon bermak qattiqligi bor ersa ul qattiqliqlarni manga yuklagil. Ul qattig'liqlar manga bo'lsun, ummatlarimqa bo'lmasun". Azroil aydi: "Yo Rasululloh, man saning yastuqingda o'lturgandin boru izi azza va jalladin yetmish yo'li farmon yetildi. Do'stum Muhammad birla rifq mador qilg'in. Jonin yuvoshliq birla olg'il, azinlardin olmishtek olmag'il", teb. Onchada Oyishai Siddiqa raziyallohu anho yig'layu Rasul alayhissalomqa yapushti. "Necha ular birla so'zlashursen, bir zamon manim birla so'zlashgil. Yetti yasharda sanga ulashdim, taqi yoshim yigirmaga yetmas erkan muborak jamolingdin azrilurman. Ey aziz jonim, sening firoqing achig'i qamug' olam uza necha ersa yolg'uz man zaif uza andin ortuqroq turur. Azinlarning etagi kuyar, manim tanim, jonim kuyar". Ul holda Fotima raziyallohu anho Rasul alayhissalomning yuzunga boqib: "Ey odamlar quvanchi, ey muhiblar sevunchi, ey mushtoqlar umanchi, ey ummatlar inonchi, ey osiylar tayanchi, ey odamiylar davlati, ey olamluqlar rahmati, ey haqning muslihi, ey xalqning shafi'i, man sansiz mehrob va minbarni netak ko'rayin", teb yig'layurda Ali raziyallohu anhu Fotimani tizar erdi. Rasul alayhissalom aydi: "Yo Ali, Fotimani tizmagil. Mantek otaning firoqinda yig'lasunlar. Qizlar yig'isi otalar yastuqi yavloq kuynukluk bo'lur". Ul holda qamug' sahobalardin yig'i va faryod va zorliq qo'pti.

Lug'at

Ev mungushi - uy ichkarisidan. Rifq - muloyimlik, mehribonlik. Azin - boshqa. Tizmak - to'xtatmoq, ushlab qolmoq.

5-guruhga matn

Rasul alayhissalomning joni bo'g'zinga keldi ersa ko'zin ochib aydi: "Ey Azroil, bir zamon sabr qilg'il, qarindoshim Jabroil kelsun. Yana bir qurla so'ng diydorin ko'rayin", teb tavaqquf qildi ersa Jabroil keldi. Yetmish ming muqarrab farishtalar birla yig'layu kirdi. Rasul alayhissalom aydi: "Qaydasen, ey qarindoshim Jabroil, qarindoshlar bu kun kerak bo'lur", Jabroil alayhissalom aydi: "Ey olam faxri, yetti ko'k farishtalari sanga ta'ziyat tutub turular erdi, anda mashg'ul

bo'ldum". Rasul alayhissalom aydi: "Ey Jabroil, bu soat na futuh kelturdung?" Aydi: "Ko'klar qapug'i, ujmohlar qapug'i ochildi. Hurlar yuksakka og'ib, niqob yuzlarindin ko'turub, iliklarinda nurdin tabaqlar olib, saning qutlug' joningga nazzora qilaling teb kuyub tururlar". Rasul alayhissalom aydi: "Ey qarindosh, muni so'rmasman. Manda kezin Mavlo taolo manim za'if yozuqluq ummatlarim birla na muomala qilg'ay, ani so'rarman". Jabroil yana yondi, bir soatda kezin yana keldi ersa aydi: "Ey sayyidi Molik al-muluk, haq taolo va ta'zim yorliqlar: "Ey manim do'stum, ko'nglungni ummatdin forig' tutg'il. Saning ummatlaringni erin tebratgani birla ul amal qilg'aymankim, Muso tayoqi Fir'avn saharasi birla qildi. Bir aso otmoqi birla qamug' kufr va sehr va tug'yon yo'q bo'zun bo'ldi. Bu kun san bir erin tebratgan birla qamug' osiy ummatlaringning daftarlarin g'ufron suvi birla yub yo'q bo'zun qilg'ayman. Ul kun Muso onasiqa ayduq: "Bu kun o'g'lungni tengizga kemishgil, qo'rqmag'il, qazg'urmag'il. Bu kun yosh o'g'lonni bizga bergil, yoshlig' yalavoch qilib sanga beraling", teduk. Senma bu kun masiyatlig' bir ovuch bulg'anuuq ummatingni bizga isborlag'il, yorin qamug'ini yorliqab, arig'ab sanga beraling teb. Oyisha raziyallohu anho aytur: "Rasul alayhissalom azin so'zlamas bo'ldi. Boqtim, og'zinda tili tebranur. Quloq tuttum, tingladim, aytur: Namozni qo'zmang, qul kungni ezgu tutung. Oxir vasiyati bu erdi, dunyodin bordi. Qirq yoshinda vahy keldi, oltmish uch yoshinda rabi' ul-avval oyining o'n uchinda dushanba kun vafoti bo'ldi. Panjshanba kun tuproqqa kirdi. Biz hammamiz Ollohnkimiz va albatta Ollohning qoshiga qaytib borajakmiz".

Maqsud ul turur. Bu yer nechuk kechar dunyoda ul yergakim, Mavlo taolo olamni, odamni aning do'stluqida yarattikim, agar Siz bo'lmaganingizda falaklarni yaratmagan bo'lardim, olamluqlar rahmati erdikim, biz Sizni olamlar uchun faqat rahmat bo'lsin deb yuborganmiz.

Lug'at

Yozug'lug' - gunohkor. Forig' tutmoq - xotirjam bo'lmoq. Erin - lab. Sahara - sehrigar, afsungar. G'ufron - kechirishlik. Kemishmoq - tashlamoq, otmoq.

Yalavoç - payg'ambar. Bir ovuch bulg'anuç - bir hovuch gunoh bilan bulg'angan. Isborlamoq-topshirmoq, havola qilmoq.

O'quvchilar matn bilan tanishib, o'rganilgan materialni yodda saqlab qolishlari lozim bo'ladi. Keyingi bosqichda har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi. Yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o'rgangan matnlarini bir-birlariga so'zlab beradilar. Shunday qilib, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladilar, ya'ni matnni to'lig'icha o'zlashtirib olishga erishadilar. O'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar.

So'nggi bosqichda guruh a'zolari yana dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar. O'quvchilar mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida o'qituvchi ularga quyidagi kabi savollar bilan murojaat etishi mumkin:

1. Umri poyoniga yetgan Rasulullohning "Kim ersaning manim uza hech da'vosi bormu?" deb so'rashining sababini tushuntiring.
2. Sahoba Ukoshaning maqsadi nima edi va o'z maqsadiga erishish yo'lida u qanday tadbir qo'lladi?
3. Payg'ambarimiz va Ukoshaning suhbatidan qanday xulosa chiqardingiz?
4. Qur'oni karimdagi "Bugun diningizni sizlarga mukammal qilib berdim va tamom qilib berdim, sizlarga ne'matimni va to'g'ri yo'l ko'rsatadigan din bo'lsin uchun islomni sizga ravo ko'rdim" oyatini eshitgan Abu Bakr Siddiq nima uchun yig'laganligini tushuntiring.
5. Parchadan Malak ul-mavt tomonidan Rasulullohga aytilgan ibratli jummalarni topib, ma'nosini izohlashga harakat qiling.
6. Matndan sahobalarning Muhammad alayhissalomga bergan ta'rif va tavsiflarini topib izohlang.
7. Rasulullohning jon berish paytidagi ruhiy holati, sahobalar va yaqinlarining iztiroblari asarda qanday ifodalangan?
8. Rasulullohning o'z ummatlariga bo'lgan mehribonliklari asarda qanday aks ettirilgan. Bu haqda mushohada yuriting.
9. Olloh taolo Muhammad alayhissalom hurmati uchun uning ummatlariga

qanday marhamat ko'rsatdi?

10. Ushbu lavha orqali islom dini haqida mulohaza yuriting. Bu din niqobi ostida buzg'unchilik, zo'ravonlik faoliyatini olib borayotgan kimsalarni islomga mansub deyish mumkinmi? Fikringizni matndan kelib chiqib asoslang.

O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini to'ldirib, yaxshi javob bergan o'quvchilarni rag'batlantirib boradi. Shu asosda barcha o'quvchilarning faolligiga erishadi va hammani baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

UMUMIY XULOSALAR

“Mumtoz hikoyalarni o‘rganishning zamonaviy usullari” (“Qisasi Rabg‘uziy” hikoyalari asosida) mavzusidagi BMinI tayyorlash natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

– mumtoz badiiy asarlar insonning o‘z-o‘zini anglab yetishiga yordam berishni asosiy maqsad qilib oladi. Inson o‘zining kimligini, nima maqsadda yashayotganini, burchi va mas‘uliyati nimadan iborat ekanligini bilib olsa, u har jihatdan mukammal, oqil va dono shaxsga aylanadi;

– mumtoz nasriy asarlar avliyolar, shayxlar, azizlar, darvishiarning muqaddas xulqini targ‘ib etish orqali odobli va mehnatsevar, kamtar va saxiy insonlarni voyaga yetkazib beruvchi adabiy-didaktik meros sifatida doimo yashab qoladi;

– mumtoz asarlarni, jumladan, hikoyalarni o‘rganishda bir qator murakkabliklar mavjud bo‘lib, bularning ba‘zilar asarning tili, morfologik xususiyatlari, sintaktik qurilishi bilan bog‘liq. O‘qituvchi bu muamolarni hal qila olishi, ya‘ni matnda kuzatiladigan arabiy, forsiy so‘zlarning, shuningdek, arxaik so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosini bilishi, lug‘aviy birliklarning kontekstual ma‘nosini uqqa olishi va bu malakani o‘quvchilarga ham singdira olishi lozim bo‘ladi;

– olingan bilimlar, egallangan ko‘nikma va malakalar hayotda Haq va haqiqatni bilishga, tanishga xizmat qildirilishi lozim. Shu ma‘noda dunyo miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy jihatdan g‘oyat murakkab sharoitda yosh avlodni yot g‘oyalar ta‘siridan asrash, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda mumtoz adabiyot ta‘lim jarayonida beqiyos tarbiya manbai bo‘lib xizmat qiladi;

– mamlakatimizda olib borilayotgan ta‘lim tizimidagi islohotlarning va adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi bo‘lmish barkamol shaxsni tarbiyalash ishida mumtoz adabiyot bosh omillardan biri sifatida e‘tirof etilgan ekan, mumtoz asarlarni o‘rganishning zamonaviy, maqbul usullarini kashf etish va ta‘lim jarayoniga tatbiq etish lozim bo‘ladi;

– o‘quvchilarda nazariy bilimlarni shakllantirishda adabiyotdagi nazariy ma‘lumotlarni, qoidalarni o‘zaro qiyoslagan holda hamda fanlararo integratsiyani

yo'lga qo'yish orqali murakkabliklarni soddalashtirish, qiyin tushuncha, qoidalarni osonlashtirish yo'lini tutish maqsadga muvofiq bo'ladi;

– diniy didaktik, tasavvufiy hamda agiografik (avliyo, valiylar haqidagi) asarlarni o'qitishda ularga badiiy adabiyot mahsuli sifatida yondashish lozim, mashg'ulotni diniy-didaktik suhbat, va'zxonlik darslariga aylantirib yubormaslik kerak bo'ladi;

– mumtoz nasrning asosini tashkil etuvchi hikoyalar, qissalar, pandlarda talqin etilgan haqiqatlar to'g'ridan to'g'ri, ochiq bayon etilmay, ramzlar yoki ramziy ishoralar vositasida ifodalanar ekan, ularni maktab adabiy ta'limida o'rganishda o'quvchilarga ramzlar ortidagi ana shu haqiqatlarni ko'rish, idrok eta bilish malakalarini shakllantirish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib mumtoz lirik asarlarni sharhlab o'rganish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

Asar tinglangach, u qanday mavzuda yozilganini aniqlash lozim. O'qituvchi avval boshdan hikoya mavzusini o'zi aytib qo'ymasligi lozim. O'quvchilarga "Aqliy hujum" qilishi maqsadga muvofiq. Ular mavzuni belgilashda qiynalgan paytlarida o'qituvchi ularga yordam berishi lozim.

Matndagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'ati yaratiladi. Lug'at ustida ishlash jarayonida undagi har bir so'zning ma'no va mazmuni muayyanlashtiriladi.

Matnning tuzilishi, kompozitsiyasi izohlanadi. Matnning shakl va mazmun munosabatiga sharh beriladi.

Matnni tegishli mantiqiy qismlarga ajratiladi, uning ixcham rejasini tuziladi.

Matndagi badiiy-tasviriy vositalarning turlari, ularning badiiy-estetik vazifalari sharhlanadi.

Matn qurilishidagi ustuvor usullarning o'ziga xosliklari aniqlanadi (qiyoslash, qarshilantirish, dialog va boshqalar).

Matndagi asosiy va yordamchi obraz (masalan, payg'ambarlar obrazlari yoki qaldirg'och, ilon, sichqon, chivin, shayton va boshqa)larning tavsifi beriladi.

Badiiy matnning til xususiyatlari (ma'nosi notanish yoki izohtalab so'zlar, matndagi kontekstual sinonimlar, mantiqiy ziddiyatni aks ettirayotgan so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, yangi so'zlar, xalqona ifoda va iboralar, ularning qo'llanishidan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar) aniqlanadi.

Muallifning mahorati belgilanadi.

Matnga nisbatan shaxsiy munosabat va baho ifodalanadi. O'quvchilardan asardan olingan taassurotlarni bayon qilish talab qilinadi.

Umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etish adabiyotning oltin qoidasi bo'lib, unda insonga mehr-shafqat, xato va gunohlarini kechirish, unga beminnat, xolis yaxshilik qilish kabi gumanistik fazilatlar ulug'lanishi, bugungi kun kishilari texnik taraqqiyot imkoniyatlaridan keng bahramand bo'lishlariga qaramay, ularning ruhiy-ma'naviy olami o'tmishdagi ajdodlar ruhiy olamidan deyarli farq qilmasligi, shu ma'noda asarlarda vasf etilgan fazilatlar, nafs tarbiyasi bobidagi o'git va xulosalar bugungi kun kishisi uchun ham muhim manba ekanligi o'quvchilarga uqtirib boriladi.

Diniy bag'rikenglik, kechiruvchanlik, o'zaro muomalada beozorlik, andisha va hayo targ'ibi tasavvufiy didaktik asarlarga xos xususiyat bo'lib, asarni sharhlab o'rgatish usuli o'quvchilarga asar mazmun-mohiyatini anglab yetishida muhim ahamiyat kasb etgani holda, bugungi dunyoda avj olib ketgan diniy ekstremizm, terrorizm va shafqatsizlik, tekim huzur-halovatga ega bo'lish uchun ochko'zlarcha intilish kabi illatlarni kamaytirishga ma'lum darajada hissa qo'shgan bo'lar edi.

Bugungi kunda butun dunyo xalqlari madaniy jihatdan bir-birini boyitishda o'tmishda yaratilgan umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga suyanmoqda. Bunday umuminsoniy meros qatlamida insoniyatni ezgulik, bag'rikenglik va mehr-shafqatga chaqiruvchi mumtoz asarlar alohida salmoqqa ega. Bizning kichik tadqiqot ishimizni esa mana shu merosning ayrim namunalarini o'rganish usullariga qo'shilgan juz'iy bir hissa deb qaralishi tarafdorimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: O'zbekiston, 1995.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
5. Adabiy tur va janrlar. Lirik. –T.: Fan, 1992.
6. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
7. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. Adabiy-ilmiy maqolalar. –T.: Adolat, 2004.
8. Haqqulov I. Kim nimaga tayanadi? –T.: Zarqalam, 2006.
9. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: 2009.
10. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo'li. –T.: Muharrir, 2013.
11. Komilov N. Komil inson- millat kelajagi. –T.: O'zbekiston, 2000.
12. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1976.
13. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil ma'akasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.
14. Muxiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. –T.: O'qituvchi, 1998.
15. Navoiy asarlari uchun lug'at. Nashrga tayyorlovchi B.Hasanov. – T.: Fan, 1993.
16. Niyozmetova R. Adabiy ta'lim muammolari. – T.: O'zbekiston, 2012
17. Niyozmetova R. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. – T. Fan, 2007.
18. Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий.Биринчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1990.
19. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: ўқитиш муаммолари ва ечимлар. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2009, 39-40-б.
20. То'хлиев В. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

21. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
22. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili (5–9-sinflar). – Yangiyo‘l: Yangiyo‘l polygraph service, 2010.
23. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
24. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996.
25. Yo‘ldoshev Q. Tahlil mashaqqatlari. “O‘zAS” gazetasi, 1993-yil, 20-son.
26. Yo‘ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablari adabiyot o‘qitishning ilmiy-pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yoz. diss. –T.: 1996.
27. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
29. Zunnunov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1976.
30. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1992.
31. O‘zbek maktablari ona tili va adabiyot darslari samaradorligini oshirish. Ilmiy asarlar to‘plami. –T.: O‘qituvchi, 1988.
32. www.ziyonet.uz
33. www.adabiyot.uz
34. www.google.uz
35. www.literatura.ru